

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 13-may chorshanba №19(9604)

PEDAGOGIK TADQIQOTLAR:

SABABLAR,


E'TIROZLAR,

OQIBATLAR

2-4 -betlar

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



 Kundalik.com haqida ma'lumot televideniye orqali har kuni berib borilishi kerak. Bu ota-onalar uchun tushuntirish va eslatma vazifasini o'taydi. Chunki ko'pchilik ota-onalar tizimni hali to'liq tushunmaydi. Bundan tashqari, farzandi endigina maktabga chiqayotgan ota-onalar ham bor.

Sayilbek XUDOYBERDIYEV



9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan o'quvchilar va sinf rahbarlari ishtirokida "Motamsaro ona" majmuasida xotira darsini tashkil etdik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari berilgan ma'lumotlarni ko'zlari yonib, butun vujudi bilan tinglashdi. Ammo ayrim yuqori sinf o'quvchilari mavzuni to'la his qila olmay, tinglashni istashmadi. Aslida bunda yoshlarning aybi yo'q, ayb biz – kattalarda.

Chunki ular televizorda qaynona-kelin mojarolari, ijtimoiy tarmoqlarda esa faqat maishiy mavzulardan boshqasini ko'rishmayпти. Shunday ekan, ulardan nega ranjiymiz?!

Gulchehra ASHUROVA

Nuqtayi nazar

O'zbek ilmiy jamoatchiligida pedagogika va pedagogik tadqiqotlar borasidagi bahslar to'xtamayapti. Kuzatishim bo'yicha bahslashayotganlarni bir necha toifaga bo'lish mumkin: pedagogikaning mohiyatini anglab, uni yoqlayotganlar; pedagogikani fan sifatida ko'ra olmayotganlar; boshqa fan tarmoqlariga nisbatan pedagogik tadqiqotlar ko'p ekanidan g'ashlanayotganlar; bahsda bildirilayotgan fikrlarga ko'r-ko'rona ergashayotganlar...

Bahslashayotgan ikki tomonda ham fikrini asoslab ko'rsatayotganlar va shunchaki ehtirosga berilib, o'z fikrini tiqishtirayotganlar bor.

Olimning bag'rikenglik qiyofasi ilmni o'z yo'nalishi (fani) doirasidan chetda ham ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Teran tadqiqotlar muallifi o'z faniga muhabbat bilan yondashar ekan, bir vaqtning o'zida boshqa fanlarning ahamiyatini ham chuqur his eta oladi. Chunki har qanday fanning fundamental tadqiqotlari tabiiy ravishda yondosh fanlar bilan chuqur integratsiyani talab qiladi. Zero, zamonaviy ilmiy tadqiqot yaxlit tizim bo'lib, unda bir yo'nalishdagi kashfiyot ikkinchisi bilan uyg'unlashmas ekan, natija ham to'liq qiymat kasb etmaydi. Tadqiqotchi integratsiya jarayonida boshqa fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini anglaydi, ilmiy yechimning keng qirralarini kashf qiladi. Agar bu uyg'unlik yo'lga qo'yilmasa, tadqiqotning ilmiy va amaliy qimmat kamayib, natija chala va hayotiy quvvatdan mahrum bo'lib qoladi. Ilm olamida beg'arazlik va xolislik oliy mezon sifatida qadrlanadi. Haqiqiy olim o'zi yoki fanini ustun qo'yishdan emas, balki ilmiy hamkorlik va muloqotdan sharaftopadi.

E'TIROZLAR

Pedagogika borasida bo'layotgan bahsni ma'lum ma'noda tabiiy qabul qilish mumkin. Matematika, fizika, biologiya, tarix, tilshunoslik va boshqa fundamental fanlar atrofida shu soha vakillariga fikr bildiradilar, bahslashadilar. Boshqa fan vakillari bunga aralashishdan tiyilishadi. Bu judayam to'g'ri. Lekin pedagogikada vaziyat boshqacha. Pedagogika fanlar kesishmasida joylashgan metafan bo'lib, bu fan bilan matematiklar ham, fiziklar ham, biologlar ham, tarixchilar ham, tilshunoslar ham shug'ullanishlari mumkin. Fanlar reyestrda 22 ta fan tarmog'i mavjud bo'lsa, ularning har biri uchun o'qitish metodikasi va didaktikasi mavjudki, bularning har biri butun boshli keng tadqiqot maydonlariga ega. Yanada soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, misol uchun fundamental matematikadan (biologiya, kimyo, tilshunoslikdan) bitta dissertatsiya himoya qilinganda, 22 ta fanni o'qitish metodikasi, nazariyasi, didaktikasi bo'yicha pedagogikadan bittadan dissertatsiya himoya qilinganda, ularning nisbati teng ketayotganini anglatadi.

1=22 nisbatda qaraydigan bo'lsak, pedagogikadan tadqiqotlar ayrimlar o'ylaganchalik ko'p emas, ularning bu boradagi g'ashlanishlari o'rinsizdir.

E'tirozlar ko'proq aniq va tabiiy fan vakillari tomonidan bo'lmoqda. Umuman, pedagogikani fan sifatida ko'ra olmaslik, anglamaslik, farqlamaslik, tan olmaslik aniq va tabiiy fan vakillariga xos "sindrom". Xalqimizda "Etiging tor bo'lsa, dunyoning kengligidan ne foyda?" degan naql bor. Agar kimdir pedagogikani fan sifatida ko'ra olmasa, bunda "ayb"ni pedagogikaga ag'darish to'g'ri emas. Ayb va xato o'shanday fikrlayotgan kishida bo'ladi. Misol uchun, kamina matematikani fan sifatida ko'ra bilmasam, uning fan ekaniga shubha qilsam, ayb matematikada bo'lmaydi, menda bo'ladi.

Bir yilcha oldin bir akademik (Sh.Ayupov emas!) ijtimoiy tarmoqlar orqali pedagogikani fanlar reyestridan chiqarib tashlash kerak, degan iddao bilan chiqdi. Ming yillar davomida Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiylar o'z qarashlarini bayon qilgan; Yan Amos Komenskiy, Jon Lokk, Jan-Jak Russo, Iogann Genrix Pestalossi, Adolf Disterveg, Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy, Anton Semyonovich Makarenko,

PEDAGOGIK TADQIQOTLAR:

(Akademik Shavkat Ayupovning "Jadid")

Mariya Montessori kabi klassiklar tadqiqotlar olib boran; Risboj Jo'rayev, Xolboy Ibraimov, Asqar Zunnunov, Ulfat Mahkamov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Boqijon To'xliyev, Safo Matchonov, Oynisa Musurmonova, Marg'uba Mirqosimova, Begzod Xo'jayev kabi zamonaviy olimlar shug'ullanib kelayotgan FANga shubha bildirish, u haqida yuzaki xulosalarini ilmiy jamoatchilikka ehtiros va jazava bilan bayon qilish qanchalik to'g'ri?

Aslida, haqiqiy olim "fan" tushunchasining mohiyatini yaxshi anglaydi. Barcha fanlar o'z o'rnida zarur va shart ekanligini-da yaxshi tushunadi. Boshqa fan haqida yuzaki mulohaza bildirish yoki uning ilmiy maqomini shubha ostiga qo'yish, aslida, o'z nufuzini shubha ostiga qo'yish bilan barobar ekanini haqiqiy olim bilishi shart.

Son borasidagi e'tirozlarning asossiz ekaniga yuqorida to'xtalidik. Afsuski, sifat borasidagi e'tirozlar ham asoslarsiz bildirilmoqda. Shu soha vakili sifatida kuzatishlarimga asoslanib aytishim mumkinki, pedagogik tadqiqotlarning sifati yildan yilga oshib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim va fan oldidagi dolzarb muammolar tadqiqotlarga obyekt bo'lmoqda. Zamonaviy pedagogik paradigmatlar, raqamli va inklyuziv pedagogika, ta'limga sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq qilish, ta'limni xalqaro baholash tadqiqotlari talablariga moslashtirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish bilan bog'liq dolzarb muammolar bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarning obyektiga aylanmoqda. To'g'ri, kamchiliklar ham mavjud. Lekin qaysi fan tarmog'ida kamchiliklar yo'q. Son, sifat va ilmiy-amaliy natijadorlik bo'yicha muammolar har bir fan tarmog'ida mavjud.

Shunday ekan, kamchiliklardan xoli bo'lmagan o'z fanimiz qolib, boshqa fanning kamchiliklarini ko'rsatish bilan "hurmat qozonish"dan tiyilaylik. Har birimiz o'z fanimizning kamchiliklari ustida bosh qotiraylik. Bizga bugun ayblov ritorikasi emas, balki isbot va ta'sir ritorikasi zarur.

SABABLAR

Mamlakatimizdagi ta'lim tashkilotlarining xalqaro reyting va baholash dasturlaridagi natijalarining pastligi e'tirozlarning asosiy sababchisi desak, noto'g'ri bo'lmasa kerak. Haqiqatan ham, oliy ta'lim tashkilotlari xalqaro reytinglarda nisbatan past ko'rsatkichni qayd etmoqda. Yoki 2022-yili bo'lib o'tgan PISA natijalariga ko'ra, mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari eng oxirgi o'rnlarni egallashdi. Bu – fakt. Shundan keyin hamma birdaniga "Bizda pedagogikadan shuncha tadqiqotlar olib borilmoqda, lekin ko'rsatkichlarimiz nega bunchalik past, demak..." deb o'ylab boshlashdi. Aslidayam shundaymi? Bu ko'rsatkichlarga pedagogik tadqiqotlar sababchimi? Yoki masalaga chuqurroq diqqat qiladigan bo'lsak, boshqa sabablar ham bormi? Quyida shu savollarga javob izlashga harakat qilamiz.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tashkilotlarida mustaqillikdan keyin qariyb chorak asr davomida xalqaro reytinglarga kirish va bu reytinglarda o'z nufuzini mustahkamlash bo'yicha ishlar deyarli olib borilmadi. 2016-yildan keyingi ta'limdagi islohotlar natijasida oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro tan olingan reytinglarda nufuzini mustahkamlash bo'yicha ishlar birmuncha jadallashdi. Ammo haligacha ko'pgina oliy ta'lim tashkilotlarida xalqaro reyting talablariga muvofiq yangilanishlarni ta'lim amaliyotiga tatbiq qilish ishlari sust ketmoqda. Xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlar oliy ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim sifati bilangina yaxshilanmaydi. Bu borada ilmiy tadqiqot samaradorligi, professor-o'qituvchilarning nashr faolligi, xalqaro hamkorlik ko'lami, akademik mobillik, ta'lim jarayonining raqamlashuv darajasi, bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi, ish beruvchilar bilan hamkorlik, universitet boshqaruvining strategik samaradorligi kabi masalalarda ham tizimli yondashuv, aniq mexanizmlar va barqaror amaliy natijalar ta'minlanishi zarur. Aks holda, xalqaro reytinglarga oid faoliyat ayrim rasmiy ko'rsatkichlarni

yaxshilash bilan cheklanib qolib, uning mazmun va institutsional samarasi to'liq namoyon bo'lmaydi.

Bizda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini xalqaro reyting indikatorlari asosida rejalashtirish, boshqarish va baholash amaliyoti yetarli darajada shakllanmagan. Natijada bu sohada institutsional tajriba, amaliy ko'nikma va barqaror boshqaruv mexanizmlari hali to'liq to'planmagan. Mamlakatimiz OTMlarining xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlari nisbatan past ekaniga aynan shu omillar ham sabab bo'lmoqda. Zero, reytinglar bilan ishlash faqat ma'lumot taqdim etish yoki rasmiy hisobotlar tayyorlash bilan emas, balki uzoq muddatli strategiya, tahliliy yondashuv, xalqaro mezonlarni chuqur anglash va ularni ta'lim, ilm-fan hamda universitet boshqaruvi amaliyotiga izchil tatbiq etishni talab qiladi. Shu ma'noda mazkur yo'nalishda katta tajriba hali yetarlicha to'planmagani mamlakatimiz oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishish sur'atiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Pedagogika

So'nggi yillarda O'zbekistonda pedagogika yo'nalishida ilmiy ishlar soni keskin oshdi. Natijada dissertatsiyalar, "yangi metodlar", "innovation yondashuvlar" haqidagi maqolalar ko'paydi. Ammo miqdoriy o'sish sifat bilan hamnafas emas, afsuski. Aksincha, haqli ravishda mutaxassislar orasida "pedagogikada psevdoinm ko'payib ketdi" degan xavotir kuchayib bormoqda. Bu holat tasodif emas. Aslida pedagogika – eng murakkab, eng sekin tekshiriladigan va eng ko'p omillarga bog'liq ilmiy sohalaridan biri. Muammoni tushunish uchun avvalo shu murakkablikning o'ziga qarash kerak bo'ladi.

Tabiiy fanlarda (fizika, kimyo) yoki texnik sohalarida tadqiqotchi nisbatan nazorat qilinadigan muhit bilan ishlaydi: tajriba qayta-qayta takrorlanadi, natijalar o'lchanadi, xatoliklar hisobga olinadi. Pedagogikada esa asosiy "tajriba obyekt" – inson, aniqrog'i, bola yoki talaba. Bu yerda bir vaqtning o'zida o'quvchining oilaviy muhiti, ijtimoiy kelib chiqishi, psixologik holati, o'qituvchining shaxsiyati, sinfdagi psixologik muhit kabi omillar hisobga olinishi kerak. Bir usul ishladimi degan savolga "ha" yoki "yo'q" deb uzil-kesil javob berish deyarli imkonsiz. Chunki bunday holatda usul emas, balki butun tizim ishlaydi. Ana shu sababli rivojlangan davlatlarda pedagogika tadqiqotlari uzoq muddatli, katta tanlanmalar bilan, murakkab statistik modellarga tayangan holda, ko'p fanlararo (psixologiya, sotsiologiya va boshqalar) amalga oshiriladi. Bu esa katta mablag', infratuzilma va metodologik madaniyat talab qiladi.

"Nega sobiq SSSRdan tashqarida pedagogika olimlari kam?" degan savolga qisqa qilib "g'arb mamlakatlarida pedagogika bilan shug'ullanuvchi olimlar kam ko'rinishining sababi – bu soha e'tibordan chetda qolgan emas, balki juda yuqori ilmiy talablar qo'yilganidir" deb javob bersa bo'ladi. Sobiq SSSR hududida esa tarixan pedagogika mafkuraviy fan sifatida shakllangan. Asosiy vazifa "insonni tarbiyalash" bo'lgan, ilmiy usullar esa ikkinchi darajaga tushirilgan.

O'zbekistonda bu sohada psevdoinm nega ildiz otmoqda?

Pedagogik psevdoinmning asosiy sababi sohaning murakkabligi ochiq tan olinmaganida deb

E'TIROZLAR, SABABLAR, OQIBATLAR

gazetasiga bergan intervyusidan keyingi mulohazalar)

Shuni ham ta'kidlashimiz lozimki, intervyuda ta'kidlanganidek, xalqaro bazalardagi jurnallardan akademik halollik qoidalarining buzilishi alomatlar bilan maqolalarning qaytishi, "yirtqich" jurnallarda chop etilgan maqolalar bo'yicha ko'rsatkichning yuqoriligiga ham, bizningcha, xalqaro reyting indikatorlari bo'yicha noto'g'ri yondashuvlar sabab bo'lmoqda. Reytingbozlikka haddan ortiq, tushunib-tushunmay ruju qo'yish o'zining mana shunday salbiy oqibatlarini namoyon etmoqda.

2022-yilgi PISA natijalariga ko'ra mamlakatimiz o'quvchilari "matematik savodxonlik" bo'yicha 81 davlat orasida 364 ball bilan 72-o'rinni; o'qish savodxonligi bo'yicha 336 ball bilan 79-o'rinni; tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha 355 ball bilan 79-o'rinni egalladi.

Nega? Bir qarashda oddiy tuyulgan mazkur savol aslida fundamental ahamiyatga ega. Chunki u faqat ayrim fanlar kesimidagi past natijani emas, balki ta'lim mazmuni, o'qitish metodikasi, baholash amaliyoti, o'quv materiallarining tuzilishi, o'quvchining fikrlash faoliyati

va bilimni hayotiy vaziyatda qo'llay olish darajasi bilan bog'liq tizimli muammolarni ochib beradi. Shu ma'noda mazkur savolga javob berish uchun ta'lim tizimini formal emas, balki fundamental tahlil qilish zarur. OECD ma'lumotlarida ham O'zbekiston o'quvchilari matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha OECD o'rtacha ko'rsatkichlaridan ancha past natija qayd etgani, shuningdek, kamida 2-darajaga erishgan o'quvchilar ulushi ham past ekanini ko'rsatilgan (Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). PISA 2022 Results (Volume I and II) – Country Notes: Uzbekistan [Elektron resurs]. – Paris: OECD, 2023. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2022-results-volume-i-and-ii-country-notes_ed6fbcc5-en/uzbekistan_2bb94bf1-en.html. OECDning keyingi ma'lumotlari ham shu manbada olingan).

Matematik savodxonlik bo'yicha past natijaning asosiy sabablaridan biri maktablarda matematik bilimni, asosan, qoida, formula va algoritmlarni o'zlashtirish doirasida o'qitish ustunligi saqlanib qolayotganida ko'rinadi. PISA esa o'quvchidan tayyor qoidadan foydalanishni emas, balki hayotiy vaziyatni matematik jihatdan ifodalash, ma'lumotni tahlil qilish, mos modelni tanlash, yechimni asoslash va natijani talqin qilishni talab qiladi. OECDga ko'ra, O'zbekistonda matematikadan kamida 2-darajaga erishgan o'quvchilar ulushi 19 foizni tashkil etgan, OECD o'rtachasi esa 69 foiz bo'lgan. Bu holat o'quvchilarda amaliy-mantiqiy tafakkur, muammoli vaziyatni modellashtirish va yechimni hayot bilan bog'lash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Demak, muammo faqat "matematikadan bilimning kamligi"da emas, balki matematik bilimning funksional qo'llanish mexanizmi zaifligida namoyon bo'lmoqda.

O'qish savodxonligi bo'yicha 336 ballik natija esa muammoning yanada chuqur qatlamini ochib beradi. Chunki o'qish savodxonligi PISAda oddiy o'qish tezligi yoki matnni qayta hikoya qilish bilan cheklanmaydi; u matnni tushunish, undagi asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotni farqlash, muallif pozitsiyasini anglash, yashirin ma'nolarni topish, axborotni solishtirish va xulosa chiqarish kabi yuqori darajali kognitiv amallarni qamrab oladi. OECD ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda o'qish savodxonligi bo'yicha kamida 2-darajaga chiqqan o'quvchilar ulushi atigi 14 foizni tashkil etgan. Bu esa o'quvchilarning katta qismi matnni chuqur anglash, topshiriq shartlarini to'g'ri talqin qilish va berilgan axborot asosida fikriy amallarni bajarishda qiynalayotganini anglatadi. Aynan shu jihat keyingi ikki yo'nalishga ham bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki PISA topshirig'ini yechishdan oldin uni to'g'ri tushunish talab etiladi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha 355 ballik natija ham shundan dalolat beradiki, maktablarda tabiiy fanlarni o'qitishda nazariy ma'lumotni eslab qolish va tayyor javobni takrorlashga ortiqcha urg'u beriladi. PISAda esa o'quvchi ilmiy hodisani tushuntirishi, dalilni ajratishi, oddiy tadqiqot mantig'ini anglashi, ma'lumot va faktlar asosida ilmiy xulosa chiqarishi lozim bo'ladi. OECDga ko'ra, O'zbekistonda tabiiy fanlar bo'yicha kamida 2-darajaga chiqqan o'quvchilar ulushi 19 foiz bo'lgan. Bu tabiiy-ilmiy bilimlarning amaliyotga ko'chirilishi, kuzatuv, izohlash, dalillash va tadqiqotga xos fikrlash elementlari yetarli rivojlanmaganini ko'rsatadi. Demak, tabiiy fanlarni o'qitishda ham mazmuni yodlashdan ko'ra, tushuntirish, izlanish va dalil asosida fikr yuritishga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor bo'lishi shart.

Past natijalarning muhim sabablaridan yana biri PISA tadqiqotlari topshiriqlarini tushuna olmaslik bilan bog'liq. Chunki PISA topshiriqlari, odatda, ko'p bosqichli, kontekstga asoslangan, jadval, diagramma, matn, rasm yoki hayotiy vaziyat bilan integratsiyalangan holda beriladi. O'quvchi masalani yechishdan oldin uning shartini to'liq anglashi, qaysi axborot muhim, qaysisi ortiqcha ekanini ajrata olishi, savol nima talab qilayotganini

payqay olishi kerak. O'qish savodxonligi past bo'lgan sharoitda esa matematik yoki tabiiy-ilmiy mazmundagi topshiriqning o'zi ham to'liq anglanmay qoladi. Shu bois PISA natijalarini faqat alohida fanlar muammosi sifatida emas, balki o'quvchining topshiriqni o'qish, tushunish, tahlil qilish va javobni asoslash madaniyati bilan bog'liq kompleks muammo sifatida baholash lozim.

Bizningcha, xalqaro reyting ko'rsatkichlarida va xalqaro baholash tadqiqotlarida mamlakatimiz ta'lim tashkilotlari ko'rsatkichining nisbatan past ekanligiga pedagogik tadqiqotlar emas, balki birinchi navbatda shu kabi obyektiv omillar sabab bo'lmoqda.

Pedagogikaning fan sifatidagi murakkab tabiatini anglamaslik ham u haqida shunchaki yuzaki fikrlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, pedagogika – murakkab fan. Chunki uning obyekti inson va uning intellektual hamda ma'naviy kamolotini ta'minlash jarayonidir. Inson esa tabiatning eng murakkab, eng serqirra mavjudoti sifatida hamisha o'zgarishda va taraqqiyotda yashaydi. Shuning uchun ham insonni tarbiyalash, unga ta'lim berish va uni har tomonlama rivojlantirish jarayonini aniq qonun-qoidalarga sig'dirib qo'yish mushkul va hatto mumkin emas. Inson bir vaqtning o'zida ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy jihatlarni o'zida mujassam etgan mavjudotdir. Pedagogikaning murakkabligi esa aynan shu jihatda – inson qiyofasining serqirraligida namoyon bo'ladi.

Aniq va tabiiy fanlarda vaziyat boshqacha. Masalan, fizikada Nyuton yoki Arximed qonunlari asrlar davomida o'z kuchini yo'qotmagan. Kimyoda suvning ikki vodorod va bir kislorod atomidan tashkil topishi hech qachon o'zgar olmaydi. Matematikada teoremlar va formulalar doimiy haqiqat sifatida qoladi. Shu bois bu fanlarda mutlaq haqiqatni yaratish, uni abadiy qonun sifatida tasdiqlash osonroq (bu tadqiqotlar oson degani emas). Biroq pedagogikada bu mumkin emas. Chunki uning obyekti – inson: insonning ma'naviy va intellektual qiyofasi, talab va ehtiyojlari esa kecha qanday bo'lsa, bugun undan farqli, ertaga esa yana boshqacha shaklda namoyon bo'ladi. Insonning fikr tarzi, dunyoqarashi, ehtiyoji va qadriyatlarini zamon bilan birga o'zgarib boradi. Shuning uchun pedagogik paradigmalari, texnologiya va metodikalar ham o'zgaruvchan, doimiy ravishda yangilanib borishi zarur. Bugun samara bergan metod ertaga kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Pedagogika doimo yangi sharoitga, yangi avlod ehtiyojlariga moslashishi lozim. Chunki har bir avlodning hayotiy tajribasi, axborot muhiti va qadriyatlarini turlicha. Bu esa pedagogikadan hamisha izlanish, ilmiy yangilanish, innovatsiyalarni talab qiladi. Aslida pedagogikaning fan sifatidagi kuch-qudrati ham ana shu o'zgarishlarga javob bera olishida, inson tabiati bilan hamnafas bo'la olishida namoyon bo'ladi. Umuman, pedagogika insonning o'zi kabi murakkab, serqirra va cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega sohadir. Unga sodda nazar bilan qarash, uning mohiyatini jo'nashtirish bu insonning o'ziga, uning kelajagiga nisbatan kamida e'tiborsizlikdir. Chunki pedagogika barcha fanlarning hayotga tatbiq etilishi va avlodlardan avlodga o'tishi uchun asosiy yo'ldir.

OQIBATLAR

Fan va ta'lim – bir-biridan ajralmas ikki qutb. Ular orasida chuqur dialektik bog'liqlik mavjud: fan yangilansa, ta'lim ham yangilanadi; ta'lim taraqqiy etmasa, fan ham ommaviy ma'noda hayotga tatbiq etilmaydi. Aslida har qanday fanning barqaror rivojlanishi uning o'qitish tizimi bilan chambarchas bog'liq. Matematika, fizika, biologiya yoki tilshunoslik bo'lsin – barchasi ta'lim orqali avlodlardan avlodga o'tadi, uning metodikasi shakllanadi. Demak, bundan "Fan bor ekan, uni o'qitish muammosi ham bor" degan haqiqat o'z-o'zidan oydinlashadi.

(Davomi 4-betda.)

nega "qiyin ilm?"

o'ylayman. Natijada rostmana yangi metodologiyasiz "yangiliklar" urchib ketdi. Ko'plab dissertatsiyalarda empirik ma'lumot yo'q yoki juda zaif, nazorat guruhlari nomiga, ular bilan ishlaganlikning dinamik ko'rsatkichlari yo'q, statistik tahlil yuzaki. "Eksperimental sinovdan o'tkazildi" degan jumla ko'pincha formal ibora bo'lib qolmoqda.

Ilmda universal, tekshiriladigan bilim muhim. Lekin bizda har bir tadqiqotchi "o'z metodikasi"ni yaratishga majbur, usulning boshqa joyda ishlashi tekshirilmaydi, takrorlana olmaydigan "natijalar" ilm sifatida qabul qilinadi. Bu esa ilm emas, **pedagogik folklor**dir.

Pedagogik tadqiqotlar ko'pincha qisqa vaqt ichida yoziladi, amaliyotda haqiqiy ta'sir ko'rsatmaydi, himoyadan so'ng ilmiy muomalaga kirmaydi. Ilmning eng muhim belgisi – **takroriy tekshiruv** deyarli yo'q.

Asl muammo qayerda?

Barcha muammo pedagog olimlarda desak adolatdan bo'lmas. Asosiy muammolardan biri **tizim pedagogikani eng oson ilm deb qabul qilganidir**. Holbuki pedagogika eng ko'p sabr, eng kuchli metod, eng yuqori halollik talab qiladigan fanlardan biridir. Qachonki jamiyat pedagogik tadqiqot "har kim qila oladigan ish emas"ligini tan olsa, psevdofilm o'z-o'zidan qisqara boshlaydi.

Nima qilish kerak?

Buning uchun davlat darajasida pedagogika dissertatsiyalariga **metodologik talablarni keskin kuchaytirish zarur**. Ilmiy hamjamiyatda ilmiy savodsizlikka nisbatan muhosasiz pozitsiya shakllantirish, jamoatchilik darajasida esa "yangi metod" degan har qanday da'voga tanqidiy qarash, ilmiy terminlarni bezak sifatida ishlatishga o'rganib qolmaslikni shakllantirish kerak.

Pedagogikada haqiqiy ilm qilish qiyin. Juda qiyin. Shuning uchun ham bu sohada yolg'on ilm tez ko'rinadi. Ammo bitta oddiy haqiqatni unutmaslik kerakki, **qiyin sohada tez va chiroyli natijalar bo'lmaydi**. Agar biz pedagogikani haqiqatan ham strategik soha deb bilsak, avvalo uni eng murakkab ilm sifatida tan olishimiz kerak. Aks holda, "ilm" nomi ostida faqatgina uning soyasi ko'payaveradi.

Erkinjon KARIMOV,
Belgiyaning Gent universiteti katta
ilmiy tadqiqotchisi,
fizika-matematika fanlari doktori

PEDAGOGIK TADQIQOTLAR: E'TIROZLAR, SABABLAR, OQIBATLAR

(Akademik Shavkat Ayupovning “Jadid” gazetasiga bergan intervyusidan keyingi mulohazalar)

(Davomi. Boshi 2-3-betlarda.)

Aynan shu o'qitish muammosi pedagogikaning fan sifatida barhayotligini isbotlaydi. Agar pedagogika bo'lmasa, fan yutuqlarining vorisilik asosida avloddan avlodga o'tishi ham va uning amaliyotga tatbiq etilishi ham yo'qoladi. Chunki fanning nazariy kashfiyotlari yosh avlod ongiga yetkazilmasa, u kashfiyot amaliy qiymat kasb etmaydi. Shu bois har bir fan o'z taraqqiyoti uchun pedagogikaga muhtoj.

Ta'lim esa fanning hayotiy qiyofasi hisoblanadi. U orqali fan yutuqlari odamlar ongi, jamiyat tafakkuriga singadi. Shu ma'noda pedagogikani “ikkinchi darajali soha” deb baholash mutlaqo noto'g'ri. Aksincha, u fanlar uyg'unligi va uzluksizligini ta'minlovchi markaziy halqa sifatida qaralishi lozim. Shuning uchun ham fan va ta'limni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Fan orqali bilim yaratiladi, pedagogika orqali esa u bilim sifatida jamiyatga yetkaziladi, o'qitishning metod va shakllari takomillashtiriladi. Bu ikki jarayonning uzviyligi pedagogikaning nafaqat zarurligini, balki fan sifatidagi maqomini ham mustahkamlaydi.

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Maktablar uchun zamonaviy o'quv dasturlari ishlab chiqilayotgani, oliy ta'limda xalqaro standartlarga mos yo'nalishlar yo'lga qo'yilayotgani, raqamli texnologiyalarning dars jarayoniga kirib kelishi va interaktiv metodlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni ancha qiziqarli va ta'sirchan bo'lib bormoqda. Bugun o'qituvchi sinfda faqat “axborot beruvchi shaxs” sifatida emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, o'quvchini mustaqil izlanishga undovchi rahbar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon ta'limning zamonaviy talablarga moslasha olayotganidan, o'zgarishlarning hayotga kirib kelayotganidan dalolatdir. Biroq biz shuni ham chuqur anglashimiz zarurki, bu kabi yangilanish va modernizatsiya jarayonlari o'z-o'zidan sodir bo'layotgan hodisa emas. Ular ilmiy asosga, pedagogik tadqiqotlarga suyangan holda ro'yobga chiqmoqda. Demak, har qanday yutuq ortida tadqiqotchi olimlarning mehnati, pedagogik maktablarning izlanishlari va ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiqi yotibdi.

Haqiqatan ham, pedagogik tadqiqotlarsiz ta'lim o'zgarayotgan jamiyatning talablariga moslasha olmaydi. Jamiyat har kuni rivojlanmoqda, ishlab chiqarish sohaslarida yangi kasblar paydo bo'lmoqda, insonning kundalik hayotida yangi texnologiyalar mustahkam o'rin egallamoqda. Bu esa o'z-o'zidan yangi bilim va ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Masalan, kechagi avlod uchun kompyuter savodxonligi nazariy ko'nikma bo'lgan bo'lsa, bugungi yoshlar uchun u hayotiy zaruratga aylandi. Ertangi kun esa yanada yuqori talablarni qo'yadi: sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, ekologik madaniyat kabi sohalar har bir shaxs uchun oddiy bilimlar darajasiga aylanishi mumkin. Shu sharoitda pedagogik tadqiqotlar ta'lim uchun kompas vazifasini bajaradi: qaysi metod samarali, qaysi yo'nalish istiqbolli, qaysi bilimlar jamiyat ehtiyojiga javob beradi kabi savollarga javob topish uchun ham pedagogika kerak. Ilmiy tahlil, tajriba va asosli xulosalarga tayanmagan ta'lim esa o'zgarishlar bilan hamnafas bo'la olmaydi va jamiyatdan orqada qoladi.

Ta'lim sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishi ham faqat pedagogik tadqiqotlar orqali amalga oshadi. Singapur, Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlar ta'lim tizimidagi ulkan yutuqlariga tasodifan erishmagan, balki pedagogik izlanishlar va ular asosida ishlab chiqilgan davlat siyosati natijasida bu darajaga ko'tarilgan. Ularda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar orqali o'quv dasturlari zamon talablariga moslashtirilgan, metodikalar takomillashtirilgan, o'qituvchilar tayyorlash jarayoni qayta ko'rib chiqilgan. Natijada, bu mamlakatlar jahon pedagogikasiga ilg'or tendensiyalarni kirita oldi va ta'lim sohasida etalonga aylandi. Shu ma'noda, xorijiy tajribani o'rganish va

milliy amaliyotga tatbiq etish, faqatgina pedagogik tadqiqotlar orqali samarali bo'lishi mumkin. Shunday ekan, pedagogik tadqiqotlarning asosiy vazifasi ta'lim va tarbiyani zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish, uni jamiyat ehtiyojlariga muvofiqashtirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh darajaga olib chiqishdir. Ilmiy izlanishlarsiz ta'lim tizimi zamonaviylashishi mumkin emas. Bu holat esa pedagogik tadqiqotlarni nafaqat zarur, balki jamiyatning kelajak taqdirini belgilovchi soha sifatida namoyon etadi.

Yuqorida 2022-yilgi PISA tadqiqotlariga ko'ra mamlakatimiz o'quvchilari past natijani qayd etganining sabablariga to'xtalgandik. Endi o'sha sabablarni bartaraf etish, natijani yaxshilash bo'yicha ayrim fikrlarni bayon qilsak.

Umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitishga nisbatan yondashuvni tubdan o'zgartirish zarur. Biz endi o'quvchini ma'lumot bilan to'ldirishni emas, balki uni fikrlaydigan, tahlil qiladigan, solishtiradigan, dalil keltiradigan, bilimni yangi vaziyatda qo'llaydigan shaxs sifatida shakllantirishga e'tibor qaratishimiz lozim. Buning uchun dars jarayonida reproduktiv topshiriqlar ulushini qisqartirib, kompetensiyaviy, muammoli, kontekstli va integrativ vazifalar salmog'ini oshirish, matn bilan ishlash ko'nikmalarini barcha fanlarda rivojlantirish, o'quvchilarni izohlash, asoslash va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatish talab etiladi. Faqat shundagina matematik, o'qish va tabiiy-ilmiy savodxonlikni bir-biridan ajralgan yo'nalishlar sifatida emas, balki yagona funksional ta'lim natijasi sifatida rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Ushbu natijalarni yaxshilash uchun faqat amaliyotda ayrim choralar ko'rishning o'zi yetarli emas, balki chuqur va maqsadli pedagogik tadqiqotlar olib borish zarur. Chunki PISA natijalari oddiy reyting emas, u ta'lim tizimining qaysi nuqtalarida uzilish borligini ko'rsatuvchi tashxis omilidir. OECD ham aynan xalqaro qiyosiy natijalar orqali mamlakatlar boshqa ta'lim tizimlarining siyosat va amaliyotidan o'rganishi mumkinligini ta'kidlaydi. UNESCO esa o'quv natijalari bo'yicha baholashlardan olingan dalillar o'quv dasturi, pedagogika, ta'lim resurslari va boshqa sharoitlarni takomillashtirish uchun mustahkam asos bo'lishini qayd etadi (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). Assessment for improved learning outcomes [Elektron resurs]. — Paris: UNESCO. — URL: <https://www.unesco.org/en/learning-assessments>). Demak, past ko'rsatkichlarning tashqi belgilarini emas, balki ichki pedagogik sabablarini aniqlash uchun ilmiy tadqiqotlar zarur.

Pedagogik tadqiqotlar, avvalo, muammoning aniq manbasini ochib beradi: past natija o'quv dasturidagi nomuvofiqlikdanmi, o'qitish metodikasidanmi, baholash amaliyotidanmi, o'quvchilarning matn tushunish ko'nikmasidanmi yoki o'qituvchining darsni tashkil etish uslubidanmi — shuni ilmiy asosda ajratib beradi. Masalan, O'zbekiston bo'yicha OECD ma'lumotlarida matematik, o'qish va tabiiy-ilmiy savodxonlikda kamida 2-darajaga chiqqan o'quvchilar ulushi juda past ekani qayd etilgan; bu esa muammo ayrim mavzularni bilmaslikda emas, balki funksional savodxonlikni shakllantirish mexanizmlarida ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun tadqiqotlar endi “Nimani o'qitish kerak?” degan savoldan tashqari, “Qanday o'qitish kerak?”, “Qaysi yondashuv natija beradi?”, “Qaysi pedagogik shartlar o'quvchini fikrlashga olib chiqadi?” degan savollarga javob berishi lozim.

Bundan tashqari, pedagogik tadqiqotlar amaliy islohotlarni tasodifiy emas, dalilga tayangan holda tashkil etish imkonini beradi. Jahon banki ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar qatorida samarali pedagogik amaliyotlar, tushuntirish, o'quvchining anglaganini tekshirish va sifatli fikr-mulohaza berish kabi omillarni ko'rsatadi. Demak, maktablarda yondashuvni o'zgartirish degani qaysi metodika, qaysi baholash usuli, qaysi didaktik vositalar va qaysi o'qituvchi tayyorlash modeli yaxshiroq natija berishini ilmiy sinovdan o'tkazishni anglatadi. Shu bois ta'limdagi bugungi past natijalarni yaxshilash, PISAgaga mos funksional savodxonlikni shakl-

lantirish va maktablardagi o'qitish paradigmasini yangilash uchun pedagogik tadqiqotlar nafaqat kerak, balki strategik zarurat hisoblanadi.

Umuman, PISA natijalarini yaxshilashning eng to'g'ri yo'li tezkor emas, ilmiy asoslangan yo'ldir: muammoni chuqur o'rganish, sabablarni aniqlash, yangi yondashuvlarni tajriba-sinovdan o'tkazish va samarali modellarni ta'lim amaliyotiga joriy etish zarur. Pedagogik tadqiqotlar ana shu jarayonning intellektual, metodologik va amaliy tayanchi sifatida maydonga chiqadi.

Ta'limni xalqaro baholash talablariga moslashtirish muammosi bizning fan va ta'limimiz uchun nisbatan yangi sohadir. Buni, avvalo, shu bilan izohlash mumkin, O'zbekiston PISA xalqaro tadqiqotida birinchi marta 2022-yili ishtirok etdi, adashmasam. Demak, xalqaro baholash mezonlari asosida milliy ta'lim natijalarini o'lchash, ularni xalqaro qiyoslash va shu asosda ilmiy-pedagogik xulosalar chiqarish amaliyoti bizda yaqin yillardagina tizimli tus ola boshladi. OECD ham O'zbekistonning PISAda birinchi marta qatnashganini alohida qayd etib, bunday qiyosiy natijalar siyosatchilar va pedagoglarga boshqa mamlakatlar tajribasidan o'rganish imkonini berishini ta'kidlaydi.

Xalqaro baholash talablariga moslashishni an'anaviy fan metodikasining oddiy davomi deb emas, balki yangi ilmiy-pedagogik yo'nalish sifatida baholash to'g'riroq bo'ladi. Chunki bu yerda gap faqat darslik mazmunini yangilash yoki ayrim test topshiriqlarini o'zgartirish haqida emas, balki ta'lim natijasini qanday tushunish, nimani “savodxonlik” deb baholash, o'quvchining bilimni qanday o'lchash va uni hayotiy vaziyatda qo'llash darajasini qanday rivojlantirish haqida ketadi. PISAning o'zi ham matematik, o'qish va tabiiy-ilmiy savodxonlikni tayyor ma'lumotni takrorlash emas, balki bilimni real muammolarda qo'llash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati sifatida talqin qiladi.

Bizning milliy pedagogikamizda uzoq vaqt davomida ta'lim mazmunini o'zlashtirish, qoida va ta'riflarni bilish, namuna asosida yechim topish kabi an'anaviy ko'rsatkichlar ustuvor bo'lib kelgan. Xalqaro baholash dasturlari esa natijani boshqacha qo'yadi: o'quvchi o'qigan matnini anglay oladimi, ma'lumotni saralay oladimi, muammoni matematik jihatdan ifodalay oladimi, ilmiy dalil va xulosani farqlay oladimi, degan savollarni markazga oladi. Shuning uchun xalqaro baholashga moslashish muammosi bizning ta'lim tizimimiz uchun faqat metodik yangilanish emas, balki paradigmatal yangilanishni talab etuvchi yangi soha hisoblanadi.

Umuman, ta'limni xalqaro baholash talablariga moslashtirish muammosini bizning fan va ta'limimiz uchun nisbatan yangi soha sifatida e'tirof etish o'rindir. Ushbu sohada hali milliy metodik tajriba, ilmiy-nazariy asoslar, kompetensiyaviy baholash vositalari, PISA tipidagi topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni dars jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari yetarlicha to'liq shakllanib ulgurmagani. Demak, mazkur yo'nalishda fundamental va amaliy pedagogik tadqiqotlarni kuchaytirish, milliy ta'lim mazmunini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish va o'qitish metodikasini funksional savodxonlikka yo'naltirish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biri sanaladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogika — bu faqat ta'lim berish va tarbiyalash usullari haqidagi nazariyagina emas, balki inson kamoloti, millat ma'naviy qiyofasi va kelajak taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega fan hisoblanadi. Uni inkor etish ta'lim va tarbiyadan, demakki, insoniyatning ertangi kundan voz kechish bilan barobardir. Ilm olamida bag'rikenglik va xolislik ustuvor bo'lmog'i shart: har bir fan o'z o'rnida qadrlil, har bir yo'nalish umumiy taraqqiyot zanjirining zarur bo'g'inidir. Pedagogik tadqiqotlarga hurmat bilan qarash, ularning natijalarini qo'llab-quvvatlash bu o'quvchi shaxsiyati, millat kelajagi, butun insoniyat taraqqiyoti oldidagi ma'naviy burchimizdir.

Umid XO'JAMQULOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor



Mushtariy muhokamasi

“ILK MAQOLAM CHIQQAN KUN”..

O'qituvchining ovozi, dardi va yutug'i jamiyatga yetib borishida omma-viy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Ayniqsa, yillar davomida pedagoglar minbariga aylangan "Ma'rifat" gazetasi ko'plab o'qituvchilar uchun ilhom, e'tirof va katta imkoniyatlar maydoniga aylanib ulgurgan. Yaqinda telegram tarmog'idagi "Ma'rifat" mushtariylari guruhimizga "Ma'rifat"da nashr qilingan ilk maqolangizni eslay olasizmi?" deya savol qoldirgandik. O'qituvchi ijodkorlar tomonidan yo'llangan bir-biridan iliq fikrlarning keti uzilmadi. Chunki bu guruhga millat ertasi, rivojiga hissa qo'shadigan, farzandlarimiz bilimlariga mas'ul ziyolilar jam bo'lgan.

Tursunoy HASANOVA, G'ij-duvon tumanidagi 43-maktab o'qituvchisi:

– “Ma'rifat” gazetasida ilk maqolangiz chiqqan kunni eslay olasizmi? Bu birgina savol ajib hayajon, qalb titrog'i, qaytarib bo'lmay yoshlik sururi, hatto hech bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan darajadagi sog'in, bolalik xotiralarimni uyg'otdi. Naq 30 yil oldingi voqealar... 1995-1996-yillar 9-10-sinfidagi orzulari osmon qadar yuksak, jurnalistlarga havas ko'zi bilan boqqan oddiygina qishloq qizi edim. Uyimizda kichkina radio bo'lardi, televizor ko'rishga biz bolalarga ruxsat yo'q, bizga berilgan vazifa faqat kitob o'qish edi.

Ilk hayajon. Tonggi soat 7:00. “Ke-lajak tongi” radioeshittirishi... “Bulbul-lar chah-chahi olamni tutdi”... Bu men yozgan va umid bilan yo'llagan she'rim edi... Ehhe, ustozlar, qarindoshlar, du-gonalar, hamma-hamma tabriklagani, keyinchalik “Ozodlik o'lakasi”, “Vatanni sevmoq iymondandir” respublika insholar tanlovlarida g'olib bo'lib, Toshkent azim-dan sovg'alar bilan qaytganim kechagidek yodimda.

Ayniqsa, respublikada alohida nufuzga ega sevimli gazetamiz “Ma'rifat”da ma-qolam chop etilgan kunni unutib bo'lmay-di. 2018-yil edi. Maktabimiz kutubxonasi haqida maqola yozgandim, undan so'ng bir necha she'r va maqolalarim chop etildi. “Ma'rifat”dagi samimiylik, hech bir ijodiy ish yoki havaskor qalamkashning ham fikri chetda qoldirilmasligi, olg'a intilish uchun beriladigan kuch meni hayratda qoldir-gan...

Gulxumor XUDOYBERDI-YEVA, Beshariq tumanidagi 11-maktab o'qituvchisi:

– Har kuni “Ma'rifat” gazetasi rasmiy kanalini kuzatib boraman. Bir kuni o'z-o'zidan maqolamni ularga jo'natish fikri tug'ildi. Maqolam tez orada nashr etildi. Bu pedagogik ustama hujjatlarimda ham inobatga olindi.

O'tgan yili gazetaning “Mening tajri-bam” maqolalar tanlovi e'lon qilindi. Tan-lovda qatnashish uchun “Karvon yo'li” nomli metodik tavsiyamni yubordim. U ham tez orada chop etildi.

2024-2025-o'quv yili chinakam ma'no-da men uchun juda omadli keldi. “Vazir ustamasi” uchun tayyorlagan hujjatlarim ichida “Ma'rifat” gazetasida chop etilgan maqolam borligi uchun birinchi saralash bosqichidan o'tdim. Farg'ona viloyati hokimligi tashabbusi bilan o'tkazilgan “Yilning eng yaxshi o'qituvchisi” tanlo-vining 3-bosqichida “Ma'rifat” gazetasida chiqqan maqolam uchun qo'yilgan 10 ball menga 1-o'rinni hadya etdi va 50 000 000 pul mukofotini yutib oldim. “Ma'ri-fat” gazetasi men kabi ijodkor pedagoglar uchun omad eshiklarini ochib berayapti.

Gazeta chin ma'noda menga qo'l uzatdi va bu qo'llar oilamga nur olib kirdi.

Sanobarxon OMONOVA, Marhamat tumanidagi 38-maktab o'qituvchisi:

– “Ma'rifat” gazetasida ilk maqolam chiqqan kuni yosh boladek sevingandim. Bu tuyg'uni ilk marotaba maktabda o'qib yurgan kezlirim “Tong yulduzi” gazeta-siga she'r va hikoyam chop etilib, tanlov-da 3-o'rinni olgan va buni radioda o'qib eshittirishganida his qilganman.

Zafar MO'MINOV, Qo'sh-rabot tumanidagi 84-maktab o'qituvchisi:

– Ismim muallif sifatida ilk marta gazetada ko'rinish bergan kunni eslamay bo'ladimi?! Eng baxtli kunni-ya? 2023-yil 19-aprel. Ilk marotaba “Ma'rifat” gazeta-sida 3 dona she'rim chop etilgandi. O'sha paytlari bizda internet yo'q, gazeta vaqtda yetib kelmasdi (hozir ham).

She'rilarim chop etilganini tuman markazida ishlaydigan bir hamkasbimdan bildim. Keyin ustoz Husan Karvonli ham telegramdan xabar bergandi.

Quvonganimni ko'rsangiz. Ota-onam eshitib duo qilishdi. Mahalla, maktab, sinfdosh va qarindoshlar... Tabriklamagan odam qolmadi. Bunga ham uch yil bo'lib-di. Hozirgacha ancha maqola, hikoyalarim shu sevimli gazetada chiqdi. Har gal ijod namunam chiqqan kuni bayram bo'lib ketadi. Ayniqsa o'tgan yili ikki bora gaze-taning “Fasl tanlovi”da g'oliblikni qo'lga kiritishim, faxriy yorliq va pul mukofoti bilan siylanishim quvonchli bo'ldi.

Erkinjon YARASHEV, Za-rafshon shahridagi 13-IDUM o'qituvchisi:

– Aniq esimda. 1999-yil. 4-kursda o'qirdim. Adashmasam, aprel oyi. Maqo-lam Nobel mukofoti haqida edi. Tahririyat sarlavhani o'quvchini o'ziga tortadigan qilib “Muhabbatning matematiklarga jazosi” deb o'zgartiribdi. Shundan bildim-ki, sarlavha maqola mazmunining yarmi bo'lishi kerak ekan. Mana shu ilk maqo-lamni haligacha saqlab qo'yganman. Gar-chi, keyinchalik 20 ga yaqin katta-kichik qoramalarim chiqqan bo'lsa-da, gaze-taning shu soni men uchun hamon qadrini yo'qotmaydi.

Ziyoda MAMAJONOVA, Kosonsoy tumanidagi 28-maktab o'qituvchisi:

– 1997-yilning bahori. Adashmasam 11-sinfda o'qirdim. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” mavzusidagi respublika in-sholar tanlovida g'olib bo'lgan ishim gaze-tada chiqqandi. Men uchun bu juda katta yutuq bo'lgan. Hammasidan quvonchlisi, o'sha yili NamDUning 1-kursidagi dast-labki saboqlarimning birida ustoz Komil-jon Abdullayev gazetani auditoriyaga olib kirib, o'qib berganda menda filologiya so-hasiga yanayam kuchli mehr uyg'ongan. Boringga shukur, “Ma'rifat”im!

Nargiza BEKNAZAROVA, Olot tumanidagi 24-maktab o'qituvchisi:

– Ilk maqolam 2020-yil 26-iyunda chiqqan. O'zimni juda katta odamdek his qilganman. O'sha yili Nargiza Beknaza-rova degan muallimani butun tuman va viloyat tanigan edi-da!

Dastlab 2018-yil 31-oktabrda “Ma'ri-fat mushtariylari” guruhiga qo'shilgan bo'lsam, 7 yildirki bilimim, dunyoqa-rashim, insonlarga bo'lgan munosabatim, o'quvchilar bilan ishlash uslubim butun-lay o'zgardi. Ijodiy o'sa boshladim. Gu-ruh a'zosi bo'lganimga 1 yil bo'lmasidan yozgan fikrlarim gazeta muqovasida chiqa boshladi. O'qituvchilarning kattami-kichik dardi gazetaning nigohidan chetda qolib ketmasdi.

“Ma'rifat” bag'ridan mengayam joy ajratgani, Olot tumanining chekka mak-tabidan gapirsam butun O'zbekiston eshi-tishi men uchun haqiqiy baxt.

Sayyora YORQULOVA, Ol-maliq shahridagi 14-maktab o'qituvchisi:

– Ilk maqolam 2023-yili chiqdi. “Ma'rifat”da o'zimning maqolamni ko'rib juda xursand bo'lganman. 2023-yili kim-dir meni “Ma'rifat mushtariylari” guruhi-ga qo'shib qo'ygandi. Mana hozirgacha hech bir ishim chetda qolmadi. Shu kunga-cha 15 ta maqolam chop etildi.

Sayyora AKBAROVA, Yoz-yovon tumanidagi 14-maktab-ning kadrlar menejeri:

– “Ma'rifat” bolaligimdan oilamizning eng sevimli nashri edi. Dadam Erkinjon Akbarov fizika, onam Habibaxon Akbaro-va esa ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lgani sabab uyimizga pochta amaki bir dasta gazeta va jurnal olib kelar, ular orasida, albatta “Ma'rifat” (“O'qituvchilar gazetasi”) ham bo'lardi.

Adashmasam, 1987-yili gazetada rah-matli dadamning maqolasi chop etilgandi. O'sha paytlari men 7-sinfda o'qir, maqo-la, she'r va hikoyalarim tuman gazetasida paydar-pay e'lon qilinib turardi. Shunga qaramay, dadamga bo'lgan havasim kuchli edi... Yillar o'tdi. Bugun ijodiy ishlarim viloyat va respublika nashrlarida, ko'plab rasmiy axborot kanallarida yoritib kelin-moqda.

So'nggi yillarda bir qator hikoya va maqolalarim “Ma'rifat” gazetasida e'lon qilindi. Bu quvonchli yangilikni oila a'zolarim bilan bo'lishdim. Shunda akam: “Barakalla, otamning sevimli gazetasida hikoyangiz chiqishi uning ruhini shod etadi”, deganida g'ururlandim. Maqtovni go'yo dadamning o'z og'zidan eshitgan-dek bo'ldim.

Ha, “Ma'rifat” men uchun juda qadrli. Chunki bu gazetani dadam, onam, o'qituv-chi opalarim va akalarim mutolaa qili-shadi.

Gulchehra ASHUROVA, Ter-miz shahridagi 13-maktab direk-torining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari:

– “Ma'rifat” gazetasi xodimlari men uchun oila a'zomdek bo'lib qolgan desam, mublag'a bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiyaga oid bildirgan zarra fikrlarimni ham e'tibor-siz qoldirishmaydi. Fikrim, maqolam chiq-sa, “tilla topgandek” xursand yuraman! Buning gashti umuman boshqacha-da!!!

“Ma'rifat” meni ko'p “qutqargan”. 2006-yil rahbarlar attestatsiyasidan ham

“Vatan – buyum emas” maqolam tufay-li o'tganman! “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” tanlovi respublika bosqichi-da gazetada yoritilgan maqolamga haka-malar 25 ball berishdi. Va shu ball viloyat-da g'olib bo'lib, respublika bosqichiga o'tishimga sabab bo'lgan.

Rahbaroy MELIBOYEVA, Uchko'prik tumanidagi 5-mak-tab o'qituvchisi:

– “Ma'rifat”da ilk maqolam chiqqani-da sevinganimdan yig'lab yuborganman. Aynan shu gazetada maqolam chiqishini orzu qilardim. “Ma'rifat” bugungi kun-da men uchun qadrli va kerakli manbaga aylangan. Chunki undan o'rganganlarim bisyor. U tufayli respublikadagi eng taj-ribali va ilg'or ustozlar bilan tanishdim. Maktab, tuman, viloyatda “Ma'rifat” orqa-li obro' topdim.

Dadam o'qituvchi bo'lgan. Darsxo-nasida taxlam-taxlam “O'qituvchilar gaze-tasi” turardi. Garchi u paytda maktabga chiqmagan bo'lsam-da, gazetalarni sanab, rasmlarini tomosha qilardim. Buncha gazeta dadamga nima uchun kerakligini so'rardim. Dadam esa o'qituvchi gazeta, kitob o'qishi kerakligini tushuntirardilar.

Yillar o'tdi. Hozir mening darsxonam-da “Ma'rifat” turadi.

Norchuchuk NORMURO-DOVA, Shahrisabz shahridagi 16-maktab o'qituvchisi:

– Meni 2019-yili sentabr oyida “Ma'ri-fat” mushtariylari” guruhiga kimdir qo'shib qo'ygandi. Guruhda o'qituvchi-lardan “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchi-si” tanlovidagi shartlar haqidagi fikrlarni bildirish so'ralgan. O'sha tanlovdagi oxir-gi shart “Onlayn ovoz” to'plash edi.

“Onlayn ovoz to'plashda qarindosh-urug', tanish-bilish, viloyatdagi o'qituvchi-yu o'quvchilar majburan jalb etiladi. Bu korrupsiyaning yangi ko'rini-shi-ku” deb fikr bildirganman.

Toki fikrlarimni gazeta sahifasida o'qimaganimcha uni chop etishganiga ishonmaganman. Eng katta orzumga erish-ganimdan yosh boladek rosa quvongandim.

Keyin “O'qituvchi nimani o'ylaydi?” rukni ostida ko'p bora fikrlarim chiqdi. Gazeta o'zimmiki bo'lib qoldi. 2022-yili “Ma'rifat” yulduzlari” safidan o'rin oldim. Doimo mushtariylar safidaman. “Ma'rifat” va barcha tahririyat xodimlariga tashakkur!

Shoira BOZOROVA, faxriy o'qituvchi:

– “Ma'rifat” gazetasiga ilk ma-qolam 2015-yil 28-yanvarda chop etilgan-di. Juda xursand bo'lgandim. O'sha kuni quvonganimdan uchib yurgandek edim. Bu maqoladan keyin ham bir necha ma-qolam chop etilgan.

“Ma'rifat” – ziyolilar gazetasi. Ta'lim sohasida ishlaydigan har bir ziyoli unga obuna bo'lsa, yil davomida ta'lim va tar-biya sohasidagi yangilik, muammo va ularning yechimlari, ilg'or va tajribali us-tozlarning metodik tavsiyalari bilan tani-shib boradi.

Afsuski, ayni paytda gazetaga obuna masalasi oqsamoqda, tiraj kam. Har bir ta'lim maskani va o'qituvchilar majburiy emas, ongli ravishda tushunib, ixtiyoriy tarzda “Ma'rifat”ning kerakli nashr ekan-ligini his qilib, obuna bo'lishlarini istardim.

“Ma'rifat” muxbiri
Fayoza AVLAYEVA tayyorladi.

Siz nima deysiz?

An'anaviy darsmi, noan'anaviy?

So'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga katta e'tibor berilmoqda. Jamiyatda texnologiya va iqtisod rivojlangani sari maktablarda darslar, o'qitish usullari, o'qituvchi va o'quvchilarga qo'yiladigan talablar ham yangilanmoqda. Islohotlarning asosiy maqsadi raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va zamonaviy bilimga ega yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Mana shunday jarayonlarda o'zim kuzatgan an'anaviy va noan'anaviy darslar haqida qisqacha ulashmoqchiman.

1-dars. O'qituvchi darsni boshladi. Davomatni aniqladi. O'tilgan mavzuni so'radi. 2-3 nafar o'quvchi javob berdi. So'ng doskaga yangi mavzuni yozdi. Sinf suv quygandek jimjit. Qoidani ko'chirib olishlarini aytib, mavzuni tushuntirdi. O'quvchilar mashq baja-

rishdi. Topshiriqni birinchi bo'lib bajargan bolalar baholandi. Bolalar qo'lini partaga qo'ygan holda tinglovchi, asosiy fokusda esa o'qituvchi bo'ldi. O'quvchilar uyga vazifani daftariga yozishdi, dars yakunlandi.

2-dars. Dars ko'tarinki kayfiyatda

shior bilan boshlandi. Navbatchilarning biri davomat haqida axborot berdi, biri sinf aylanib tozalikni tekshirdi. O'qituvchi "Muammoli metod"-dan foydalanib savol berdi:

– O'quvchilar, yomg'ir nima uchun yog'adi?

Ko'pchilik javob berdi, xato fikrlar ham tinglandi, oxirida ustoz javoblarni umumlashtirdi. Mavzu deyarli doska va interaktiv doskada bajarildi (vizual xotira, ko'rib tushinish orqali bola ma'lumotni 80 foiz egallaydi). So'ngra ibratli ijtimoiy videorolik tomosha qilindi. Suhbat o'tkazildi.

– Kimning uyida kitoblar ko'p? Kichik bo'lsa-da kutubxonangiz bormi?

Javoblar ham turlicha bo'ldi. "Klaster" metodi orqali o'quvchilar doskaga kitob so'ziga taalluqli so'zlar yozishdi. O'quvchilar qiziqib, talashib erkin fikr bildirmoqda.

O'qituvchi doskaga yangi mavzuni yozdi. "Kitob – o'tob" she'rini bolalar navbat bilan o'qib, mazmunini so'zlashdi, savollarga javob berishdi. Mashq daftar bilan ishlab yozdi, chizdi. Deyarli barcha bolalar darsda qatnashib, rag'bat kartochkasi oldi.

Uyga vazifa qilib kitobxonlik bo'yicha guruh bo'lib loyiha ishi tayyorlab kelish berildi.

Mana 300-400 yillardan beri an'anaviy dars usulidan foydalanib kelinmoqda, bu bejiz emas. An'anaviy darsning kuchli tomonlari ham bisyor, albatta:

- tartib-intizom;
- nazariy bilimni tizimli berish;
- baholash osonligi;
- jamoada ishlashni rivojlantirish.

Ammo bugun uning zamonaviy davr talablariga nisbatan kamchiliklari ham yo'q emas: o'qituvchi faol, o'quvchi passiv;

♦ o'quvchi bemalol fikrlay olmaydi;

♦ har bir o'quvchining individual qiziqishi hisobga olinmaydi;

♦ o'qitish jarayoni ko'proq nazariya bilan olib boriladi;

♦ bolalarda yaratuvchanlik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash cheklangan, tayyor bilim beriladi.

Noan'anaviy dars usullari esa o'quvchilarning erkin bo'lishi, mustaqil, tanqidiy fikrlashi, amaliy ko'nikmalar egallab, hayotda qo'llay olishiga imkon yaratadi. O'qituvchi faqat yo'naltiruvchi, o'quvchilar dars markazida, tinglab yodlamaydi, balki fikrlab mulohaza qiladi. Menimcha, eng to'g'ri yondashuv – ikkala dars usulini uyg'unlashgan tarzda olib borish. Bunda aralash dars usulida asosiy bilimlar an'anaviy tarzda, rivojlantiruvchi bilimlar zamonaviy metodlar bilan samaraliroq bo'ladi deb o'ylayman.

Hilola MAMAJONOVA,
Asaka tumanidagi
37-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi



Sinab ko'ring

O'yinchoqlar orqali nutqimizni boyitamiz

Bolaning og'zaki nutqini rivojlantirish va so'z boyligini boyitish vositasi sifatida o'yinchoqlardan foydalanish tez samara beradi. U bolada ijobiy his-tuyg'ular, gapirishga bo'lgan istakni uyg'otadi. Tadqiqotchi olimlar shuni isbotladiki, o'yinchoqlar orqali bolalar kelajakda duch keladigan vaziyatlardan qanday chiqish yo'llarini o'rganadi.

Bola o'yinchoq bilan o'ynash orqali atrof-olam bilan tanishadi. Bundan tashqari, o'yinchoq bolada lug'atni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi, yangi so'zlar manbasi bo'lib xizmat qiladi. Bolaning tavsiflash va hikoya qilishga bo'lgan qiziqishi orqali bilimlari ortib boradi.

Nutqni yaxshilash mashg'ulotlarida bolalarda tasvirlay olish, kuzatuvchanlik va bilish qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida "Toping va tasvirlang" o'yini tashkil etish mumkin. Buning uchun turli o'yinchoqlar tanlanadi: ikkita qo'g'irchoq – kamonli va kamon-siz, turli rangdagi ikkita mushuk. O'yinchoqlar bir-biri bilan taqqoslanadi. Ularning xarakterli xususiyatlari va farqlarini aytish orqali bolaning lug'at boyligi faolla-

shadi. So'ng tarbiyachi o'yinchoqlarni yashiradi va ularni topishni taklif qiladi: "Aziz oq mushukchani, Malika qora rangni, Nigora esa kamonli qo'g'irchoqni topadi". Bolalar o'yinchoqlarni topib olib kelishgach, o'qituvchi savol beradi: "Sizda qanday mushuk bor? Mushukning boshida nima bor? Bu nima?" kabi. Bola tarbiyachi yordamida ularni tavsiflaydi.

Ushbu suhbat natijasida bolalarning javoblari umumlashtiriladi: "Malika qora mushukchani topdi. Uning boshida quloqlari, katta ko'zlari, mo'ylovlari bor. Mushukchani uzun dumi bor". Bolalar mushukni topishga kirishadi. O'yin davomida bolaga mavzuni tavsiflashda yordam beradigan kuzatish, ko'rib chiqish, savol-javob, suhbat, analiz-sintez metodlari qo'llaniladi.

Shuni unutmaslik kerak, bolaning birinchi nutqiy ustozu bu – ota-onadir. Bolalarning nutqi rivojlanishida ota-onalar quyidagi vazifalarni to'liq bajarishi maqsadga muvofiq:

√ so'zlarni to'g'ri, to'liq talaffuz qilishini ta'minlash, bunda ota-onalar bevosita nutqida aniq va to'liq jummalarni ishlatishi;

√ chaqaloqlik davridan bolalarga har xil rasmlar kitoblarni o'qib berish;

√ bola bilan ko'proq suhbatlashish kerak.

Ota-onalar, farzandlaringizga mehribon bo'ling, bu bolaning o'z fikrini erkin ifodalashiga yordam beradi. Bolangizning nutqiy xatoliklarini tuzatish va tilni rivojlantirishda, albatta, sabrli bo'ling. Telefon hamda gajet-



lardan yiroq tuting. Bolalar bilan suhbatlar, interaktiv o'yin va mashg'ulotlar o'tkazing. Bu bolaning nutqiy va psixologik rivojlanishiga yordam beradi.

Farangiz NURILLAYEVA,
Yangiayot tumanidagi
285-maktab psixologi

Tadqiqot

Bugungi kunda O'zbekistonda Yangi Renessans poydevorini yaratish va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilish jarayonida inson qadri, uning ma'naviy kamoloti va barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, ta'lim va tarbiya tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan holda yoshlarni yuksak fazilatli, irodali va ijtimoiy faol shaxslar etib kamol toptirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda, Sharq mutafakkirlarining inson kamoloti haqidagi bebaho merosini bugungi kun nuqtayi nazaridan qayta tadqiq etish va ularni yosh avlod ongiga singdirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O'zbek adabiyotshunosligi va navoiyshunosligining zabardast olimi, filologiya fanlari doktori, professor Muslihiddin Muhiddinovning "Komil inson – adabiyot ideali" nomli fundamental tad-

Muhiddinov tadqiqotining muhim ilmiy xulosalaridan biri – Navoiyning o'z salafariga munosabatidir. Muallif Navoiyni shunchaki davomchi emas, balki an'analarni boyitgan ijodkor sifatida ko'rsatadi. Masalan, Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida zulm va adolatsizlikka qarshi g'azabning ehtirosliroq ifodalangani adabiyotning hayotga yaqinlashuvidan dalolat berishi sifatida talqin qilingan.

"XAMSA" DA KOMIL INSON KONSEPSIYASI

qiqoti aynan shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilishi bilan alohida ajralib turadi. Asar shunchaki adabiy tahlil emas, balki bugungi kun yoshlari uchun o'ziga xos ma'naviy dasturulamali vazifasini o'taydi. Mazkur maqolada M.Muhiddinov tadqiqoti asosida Sharq xamsanavislik an'anasidagi inson konsepsiyasining evolyutsiyasi va Alisher Navoiyning bu boradagi inqilobiy yangiliklarini yoritishga harakat qilamiz.

Asarning bosh g'oyasi – "Xamsa" turkumidagi birinchi dostonlar misolida inson kamoloti va ijtimoiy ideal masalasini yoritishdan iborat. Muhiddinov tadqiqotining qiymati shundaki, u faqat bir muallif bilan cheklanmay, to'rt asrlik(XII–XV asrlar) adabiy jarayonni yaxlit zanjir sifatida ko'rib chiqadi.

Nizomiyning "Maxzan ul-asror"i – ilohiy va axloqiy hikmatlar manbai, Dehlaviyning "Matla' ul-anvor"i – ijtimoiy va axloqiy me'yorlarning kengayishi; Jomiyning "Tuhfat ul-ahror"i – falsafiy-tasavvufiy teranlik va nihoyat Navoiyning "Hayrat ul-abror"i – gumanizmning eng yuqori nuqtasi va ijtimoiy illatlarga nisbatan murosasizlik namunasidir.

Asarda ta'kidlanishicha, har to'rt-ta shoir uchun ham inson – borliqning gulto'ji. Biroq muallif Navoiy ijodida bu konsepsiyaning yangi bosqichga ko'tarilganini ilmiy asoslab beradi: "Navoiyda biz aniq tasvirlar, aniq satirik qiyofalarni ko'ramiz. O'zbek shoiri so'fiyona ezgu-ideal g'oyalar cho'qqisidan turib, insoniy nuqsonlarni birma-bir fosh etadi".

Muhiddinov komil insonni faqat uzlatga chekingan zohid emas, balki xalq dardi bilan yashaydigan, adolatni qadrlaydigan va nafsini jilovlay olgan shaxs sifatida talqin qiladi. Bilamizki, barcha davrlarda ham o'z nafsini ustidan nazoratni o'rnatgan kishilik jamiyatlari muvaffaqiyatga erishgan. Bu borada adabiyotshunos olim I.Haqqulov shunday yozadi: "Ruhoni-yatning nafsoniyat ustidan g'alaba qilishi komillik yo'lining nihoyasidir. Bunga erishmoq uchun ikki kuch – ruh va nafs orasidagi murosasiz kurashning sabab va ehtiyojlarini mushohada qilish zarur".

biroz soddaroq va amaliyroq ekanini qayd etgan.

- Jomiyda komillik mezoni tasavvufiy poklanish bilan chambarchas bog'liq. U insonning ichki olami, qalb riyozati va ilohiy nurga intilishini birinchi o'ringa qo'yadi. Muhiddinov fikricha, Jomiy Navoiy uchun ma'naviy-ma'rifiy ko'priq vazifasini o'tagan.

- Navoiyning eng katta farqi uning tasviriy qudrati va tanqidiy ruhida. U shunchaki "yaxshi bo'l" demaydi, balki "yomon"ni bor bo'yi bilan, hayotiy misollarda ko'rsatib, nafrat uyg'otadi.

Tadqiqotda Navoiyning xamsanavislik an'anasidagi inqilobiy yangiliklari va salafaridan farq qiluvchi o'ziga xos qirralari teran ochib berilgan. Olimning talqinicha, Navoiy shunchaki an'anani davom ettiruvchi emas, balki uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'targan ijodkoridir. Quyida Navoiyning Muhiddinov asarida alohida qayd etilgan muhim yangiliklarini tahlil qilamiz:

1. Muhiddinov yangilik sifatida Navoiyning murosasizligini ko'rsatadi. Agar Nizomiy yoki Jomiyda inson kamoloti ko'proq nasihat va irfoniy o'gitlar orqali berilgan bo'lsa, Navoiyda bu jarayon ijtimoiy illatlarga qarshi keskin kurash shaklini oladi. "Navoiyda biz aniq tasvirlar, aniq satirik qiyofalarni ko'ramiz. O'zbek shoiri so'fiyona ezgu-ideal g'oyalar cho'qqisidan hamon illatlarni, insoniy nuqsonlarni birma-bir fosh etadi, yomonning yomonligini bo'rttirib tasvirlaydi".

Navoiyning yangiligi shundaki, u "yomon" obrazni shunchaki tilga olmaydi, balki uning jirkanch qiyofasini badiiy bo'yoqlar bilan chizib beradi, bu esa kitobxonda illatga nisbatan nafrat uyg'otadi.

2. Muallif ta'kidlashicha, Navoiygacha bo'lgan "Xamsa"larda komil inson obrazi ko'proq mujarrad – ya'ni faqat xayolda yoki falsafiy qarashlarda mavjud bo'lgan ideal edi. Navoiy esa bu idealni yerga tushiradi, uni xalq ichiga olib kiradi. Navoiyning fikricha, komillik – bu faqat tarkidunyochilik emas, balki elga xizmat qilishdir. Muhiddinov tahliliga ko'ra, Navoiyning "Hayrat ul-abror"ida ijtimoiy faollik asosiy o'rinda turadi. Jamiyatning har bir a'zosi – shohdan tortib gadogacha o'z vazifasini adolat bilan bajarishi shartligi qat'iy qo'yiladi.

3. Muhiddinov Navoiyning adolat haqidagi qarashlari avvalgi shoirlaridan ko'ra keskinroq ekanligini qayd etadi. Navoiy zulmni shunchaki qoralamaydi, balki uning oqibatlarini dahshatli tasvirlar bilan ko'rsatadi. "Hayrat ul-abror" dostonida zulm va adolatsizlikni tanqid qilish nafasi baland, g'azab ehtirosli ifodalangan".

4. Navoiyning bunyodkorligi – bu ma'nolarni turkiy til imkoniyatlari bilan boyitishidir. Muhiddinov fikricha, Navoiy forsiy "Xamsa"lardagi nozik tushunchalarni turkiy tilning shirasi va qudrati bilan ifodalab, ularga yangicha ruh bag'ishlagan. Bu esa asarning xalqqa yaqinligini oshirgan.

5. Navoiy dostonining "Hayrat ul-abror" deb atalishining o'zaroq bir yangilikdir. Muhiddinov talqinida Navoiy insonni faqat bilim olishga emas, balki

borliqning sirlaridan hayratga tushishga va shu orqali ilohiy mohiyatni anglashga undaydi. Bunda hayrat – bilishning eng yuqori nuqtasi sifatida talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Muslihiddin Muhiddinov Navoiyni xamsanavislikning "xotimachisi" emas, balki uni yangi mazmun bilan boyitgan islohotchisi sifatida taqdim etadi. Navoiyning yangiligi – insonni o'z zamonining muammolari ichida ko'rish va uni ma'naviy uyg'onishga chorlashdir.

Muallifning ilmiy xulosasiga ko'ra, to'rtala ijodkor o'rtasidagi farq – bu inson konsepsiyasining yuksalib borishidir. M.Muhiddinov talqinida Navoiy salafaridan farqli o'laroq, komil inson g'oyasini faqat kitoblardagi orzu emas, balki jamiyatni o'zgartiruvchi kuch darajasiga ko'targan. Uning "Hayrat ul-abror"i – bu to'rt asrlik ma'naviy izlanishlarning eng yuksak sintezidir.

Ustoz Muslihiddin Muhiddinov ushbu asari vositasida komil inson – Sharq adabiyotining barcha davrlari uchun bosh ideal bo'lganini, Navoiy dahosi – o'zigacha bo'lgan barcha ma'naviy tajribalarni umumlashtirib, mukammal "insonshunoslik" maktabini yaratganini, adabiyotning asosiy maqsadi insonni axloqiy tubanlikdan qutqarish va uni jamiyat uchun foydali shaxsga aylantirish ekanini isbotladi.

Muslihiddin Muhiddinovning "Komil inson – adabiyot ideali" asari Sharq xamsanavislik an'anasini yangicha talqinda, yaxlit tizim sifatida o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Olimning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, Nizomiydan Navoiygacha bo'lgan to'rt asrlik adabiy jarayon insonni ma'naviy va ijtimoiy yuksaltirishning izchil evolyutsiyasidir.

Tadqiqotning bugungi kun islohotlari uchun dolzarb ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Navoiy talqinidagi komillik faqat shaxsiy tarkidunyochilik emas, balki jamiyat va el xizmatida bo'lish, ijtimoiy illatlarga qarshi murosasiz kurashish demakdir. Bu g'oya bugungi kunda yosh avlodda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va "Korrupsiyasiz soha" tamoyillarini qaror toptirishda ma'naviy asos bo'la oladi.

2. Muallif Navoiyni an'analarni boyitgan islohotchi sifatida taqdim etadi. Bugungi sharoitda ham ajdodlar merosini shunchaki takrorlash emas, balki ularni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish, ya'ni "milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida harakat qilish muhimligi maqola tahlilida o'z tasdig'ini topadi.

3. To'rt buyuk mutafakkir uchun ham inson borliqning gulto'ji va eng oliy qadriyat bo'lgan. Bugungi kunda "inson qadri uchun" tamoyili aslida ming yillik adabiy-falsafiy merosimizning mantiqiy davomi ekanini M.Muhiddinov tadqiqoti yana bir bor isbotlaydi.

Muallifning ilmiy xulosasiga ko'ra, Navoiy yaratgan "insonshunoslik" maktabi insonni axloqiy tubanlikdan qutqarish va uni jamiyat uchun foydali shaxsga aylantirishni asosiy maqsad qilgan. Shu bois, ushbu asar va undagi ilgari surilgan g'oyalar barkamol avlodni tarbiyalash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Ahadjon MUHAMMADIYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti professori,
filologiya fanlari doktori

ZIYOGA YO'G'RILGAN YILLAR

Qutlov

Yaxshi xulqi odamlar xushmuomalalik, halollik, rostgo'ylik, sabr-qanoat, diyonat, mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlariga ega bo'ladi va odamlarga yaxshilik qilishga intiladi. Marifatliklik — ilmiylikning yuksak belgisidir. Bilimli shogirdlar, solih farzandlarni tarbiyalab kelayotgan ustozimiz Risboy Jo'rayev ana shunday insonlardan biri.



Bu gulshan ichra yo'qdur baqo guliga sabot, Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik birla ot,

– deydi Alisher Navoiy.

Risboy Jo'rayev Sirdaryo qirg'og'ida, bag'ri keng Mirzacho'l zaminida tavallud topgan. Yoshligidan ilmga bo'lgan tashnalik uni poytaxt sari yetaklagan. Toshkent politexnika institutiga o'qishga kirib, injener-gidroenergetik mutaxassisligini egallaydi. A'lo baholarga o'qishi, yoshlik shijoati, yuksak iqtidori, tashkilotchilik qobiliyati institut jamoasining diqqatini tortadi. Shuning uchun ham uni institutda o'qituvchilikka qoldirib, tez fursatda yoshlar tashkilotiga rahbar etib saylashadi.

Bo'lajak zukko olim, dono rahbar, tashkilotchi yoshlar bilan ishlash jarayonida katta tajriba orttirib, ko'pchilikning nazariga tushadi. Yosh mutaxassisni qisqa fursatda Kasb-hunar ta'limi davlat qo'mitasiga ishga yo'llaydilar.

Rahbarlik va tashkilotchilik ishini mas'uliyat va muvaffaqiyat bilan ado etgan ustoz ilmiy-tadqiqot ishlaridan bir lahza ham chekinmadi. Ta'lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida u zamon talabiga hamnafas holda darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zaruratini chuqur angelaydi. Shu ezgu maqsad yo'lida

monografiya, darsliklar bilan bir qatorda, ko'pgina o'quv predmetlaridan elektron darsliklar, multimedia o'quv qo'llanmalari, shuningdek, umumta'lim maktablari uchun elektron interaktiv doskalar ham bugun dars jarayonlarida keng qo'llanilmoqda. Ustozning tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida 3 jildlik "Pedagogika" ensiklopediyasi yaratildi.

Jonkuyar ustoz O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida rahbarlik qilgan chog'lari pedagogik islohotlarni amalga oshirish va pedagogika sohasidagi ilmiy faoliyatni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. U umumiy pedagogika, pedagogika va ta'lim tarixi mutaxassisligi bo'yicha nomzodlik va doktorlik ilmiy darajasini berish bo'yicha maxsus himoya kengashiga raislik qildi.

Aslida inson umrining mazmuni uning yoshi, necha yil yashagani bilan emas, balki umrining qanchalik samarador kechgani, boshqalarga qanday foyda keltirgani, hayotda ne taxlit iz qoldirgani bilan sarhisob qilinadi. Olimning hayoti uning yaratgan ilmiy asarlari, ilmiy-pedagogik maktabida va bu maktabning mustahkamligidan darak beruvchi shogirdlarida o'z aksini topadi. Insonning kimligi esa uning qanday do'stlar orttirgani, el-yurt koriga qay darajada yaragani, o'z hayotiy e'tiqodlariga qanchalik sadoqatli bo'lgani, odamgarchiligi bilan o'lchanadi. Bu jihatdan Risboy Jo'rayevga havas qilsa arzidi. U mard va tanti do'st, namunali oila boshlig'i, sadoqatli yor, farzandlariga havas qilgudek tarbiya bergan ota, qat'iyatli rahbar, barchaga birdek mehribon inson, zahmatkash olim, o'zbek pedagogikasining jonkuyaridir.

Muallim haqida so'zim ushbu dir: Muallim kamolot ichra ko'zgudir,

– deydi shoir Abdulla Oripov "Muallim" she'rida. Risboy Jo'rayev ham ustoz, ham olim, ham rahbar, ham inson sifatida qanchalik teran fikrli, prinsipial,

ko'pni ko'rgan, hayotning oq-u qorasini tanigan, inson qadrini har narsadan ustun qo'yuvchi inson sifatida qadrlanadi.

Bugun kamtar, mehribon, rahbarlik lavozimida po'latdek toblangan, hamisha o'z fikri, qarashlariga ega, kurashlarda oldingi saflarda turgan, barcha qiyinchiliklarni mardonavor yenggan zabardast rahbar, mehribon ustoz el e'tiborida.

Ma'lumki, Prezidentimizning "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti negizida Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tashkil etildi. Institut faoliyatida Risboy Jo'rayevning o'rni juda katta. Ustoz "Milliy tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish texnologiyalari ilmiy tadqiqotlari" bo'limi mudiri sifatida institut ilmiy faoliyati rivojiga har tomonlama hissa qo'shib kelmoqda.

Risboy Jo'rayev pedagogika fanlari doktori sifatida hozir o'zining katta ilmiy maktabiga ega ustoz. Uning ilmiy maktabida 45 nafar shogird ilmiy tadqiqot ishlarini yakunlab, diplom egasi bo'lish baxtiga muvaffaq bo'ldi. Ularning 16 nafari fan nomzodi, falsafa doktori(PhD) va 29 nafari fan doktori. Ustoz rahbarligida ilmiy tadqiqot olib borgan shogirdlar bugungi kunda yurtimiz hamda xorijda ishlab chiqarish, ta'lim va tarbiyaning turli sohalarida yetuk kadr sifatida faoliyat yuritmoqda. Mazkur ilmiy maktabda bugungi kunda yana 15 nafar yosh mutaxassis tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Risboy Jo'rayev davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va modernizatsiyalashda, o'rta maxsus, professional ta'lim bo'yicha darsliklarning yangi avlodini yaratishda bevosita ishtirok etib kelmoqda.

Ustozning muallifligida 25 ta monografiya va 900 dan ortiq ilmiy maqola nashr qilingan bo'lib, sohaga oid 30 dan ortiq maqola xorijiy davlatlarning nufuzli nashrlarida chop etilgan. Ko'pgina o'quv fanlarining zamonaviy elektron resurs-

larini ishlab chiqish asnosida 16 ta dasturiy mahsulot bo'yicha patent muallifi sanaladi.

Akademik R.Jo'rayev davlat ilmiy-texnika dasturlari bo'yicha Respublika va xalqaro miqyosdagi bir necha ilmiy-amaliy loyihalarda rahbar va ilmiy maslahatchi sifatida faoliyat yuritgan, bunday faoliyat bugungi kunda ham samarali davom etmoqda. Akademik rahbarligida Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida "Talabalar-niing ijtimoiy-metodik ko'ngilli faoliyatini tashkil etish orqali inkluziv va uy ta'limi samaradorligini oshirish" nomli amaliy loyiha ishlab chiqilmoqda.

Risboy aka O'zbekiston Respublikasidagi uzluksiz ta'lim tizimining asoslarini yaratish va uning me'yoriy-huquqiy bazasini shakllantirishda bevosita ishtirok etgan. Xususan, u 9+3 ta'lim tizimi (umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) islohotining ilmiy-amaliy asoslarini yaratgan olimlardan hisoblanadi.

Ilm bebaho boyluk, uni egallash oson ish emas. Ilm olishni igna bilan quduq qazishga o'xshatishadi. Inson shunday bebaho xazinaning sohibi bo'lishida ustozning o'rni beqiyos. Risboy Jo'rayevning xalqaro maydondagi faoliyati uning O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirgan islohotlarni xorijiy tajribalar asosida boyitish va milliy yutuqlarni dunyoga tanitishga qaratilgan, shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimi uchun zarur bo'lgan xorijiy tajribani olib kirish va milliy islohotlarni moliyaviy hamda ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgan. Uning faoliyati o'zbek pedagogika fanini xalqaro miqyosda tanishtirishga katta hissa qo'shgan.

Akademik Risboy Jo'rayev 2002-yil-



dan bugungi kungacha barcha ta'lim bosqichlari o'rtasidagi o'zaro uzluksizlik va uzviylikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Uzluksiz ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnali bosh muharriri sifatida uzoq yillardan buyon mehnat qilib kelmoqda. Bundan tashqari yurtimizdagi ko'plab ilmiy nashrlar, nufuzli jurnallarning tahrir hay'atlari qatorida.

Uning ko'p yillik samarali mehnati davlatimiz tomonidan yuksak baholanib, "Mehnat shuhrati" va "Do'stlik" ordenlari, shuningdek, qator esdalik nishonlari va sohaviy mukofotlar bilan taqdirlangan. Shunday katta e'tiroflardan biri Risboy Jo'rayevga 2017-yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi unvoni berilishidir.

Ustozning olim va serqirra murabbiy sifatida ko'p yillik mehnatlari 2025-yilda ilm-fan rivojiga qo'shilgan salmoqli hissasi, innovatsion yondashuvi va yuksak ilmiy natijalari uchun "Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun" nominatsiyasi g'olibi sifatida e'tirof etildi. Ya'ni bu yilning eng namunali akademigiga berilgan sharaflari mukofot edi.

Ilmiy meros – bu faqatgina kitoblar, maqolalar yoki loyihalar emas, balki kelajak avlodlar uchun mustahkam ma'naviy va intellektual poydevordir. Ustoz yaratgan g'oyalar, ilgari surgan konsepsiyalar va amalga oshirgan islohotlar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda ta'lim sohasida xizmat qilib kelmoqda.

Risboy Jo'rayevning hayoti va faoliyati – bu fidoyilik, izlanish va yuksak mas'uliyat namunasi. Uning nomi nafaqat o'zbek pedagogikasida, balki xalqaro ilmiy jamoatchilikda ham hurmat va e'tibor bilan tilga olinadi. Shunday buyuk insonning boy ilmiy merosi va ezgu ishlari kelajak avlodlar uchun yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilishi, uning orzulari va maqsadlari esa yangi yutuqlarda o'z ifodasini topishi shubhasiz.

Xolboy IBRAIMOV, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik

Insonlar borki, ularning hayoti jamiyat uchun mayoq vazifasini o'taydi. Ular bosib o'tgan yo'l shunchaki mehnat daftarchasidagi qaydlar emas, balki minglab qalblarga qadalgan bilim va ezgulik urug'laridir. Shunday insonlardan biri, Gurlan zaminining faxri, fidoyi pedagog va mohir rahbar, Ustozim – "O'zbekiston Qahramoni" Anora opa Mahmudovadir.



Qahramon Ustozning ma'rifatli umr yo'li

Anora opa butun hayotini ta'limga, maktabga bag'ishlagan. Ustoz matematika fani o'qituvchisi sifatida sonlar va formulalar ortida ulkan mantiqni ko'rgan bo'lsa, direktor sifatida har bir o'quvchining kelajagini ko'ra olgan. U kishining boshqaruv uslubi – matematika kabi aniq, psixolog kabi nozik va onalarcha mehribonlik bilan yo'g'rilgan edi.

Anora opa nafaqat maktab direktori, balki hayot darsining ustosi. Ustozning tadbirliligi va vazminligi biz uchun har doim ibrat, namun bo'lgan. Ustozimizni zamonaviy tilda "top-menejer" deb atash mumkin. Anora opa maktabni shunchaki bino emas, balki kelajak bunyodkorlari yetishib chiqadigan maskan deb bilgan. Uning uzoqni ko'ra olishi, hayotiy maslahatlari, o'g'itlari va har bir shaxsga o'ziga xos yondashuv bilan shubhat olib borishi minglab yoshlarning hayot yo'lini yoritgan.

Ko'plab shogirdlar qatorida mening ham bugungi darajaga yetishimda, shaxs bo'lib shakllanishimda Anora opaning o'rni beqiyos. Onam bilan yelkadosh bo'lib ishlagan, bizga ham ustoz, ham rahnamo bo'lgan Anora Mahmudovaning har bir o'g'iti bugun biz uchun oltin qoidaga aylangan.

Biz uchun maktabimizdagi 51-raqamli matematika xonasi alohida nurli maskan edi. Ustozimiz Anora opa hamisha: "Matematika – fanlar kaliti" deb takrorlardir. Bugungi kunda ilmiy faoliyatimda, mantiqiy xulosalarim va tahlillarimda o'sha 51-xonada olingan bilimlarning zalvorini har qadamda his qilaman. Matematika faqat sonlar emas, u tartib, intizom va hayotni to'g'ri tahlil qilish san'ati ekanini Ustozimiz o'z darslarida qalbimizga muhrlagan ekan.

U kishining nafaqat matematik, balki mohir psixolog ekanligi har bir darsda namoyon bo'lardi. Biz faqat misol-masala yechmadik, balki mehnat qilishni, muammolarga kreativ yondashishni, hatto to'g'ri va balansli ovqatlanish madaniyatini ham, umuman, hayotda neki zarur ilmlar bo'lsa, barchasining asosini o'rgandik.

Anora opa o'z shogirdlariga shunchaki o'quvchi deb emas, o'z farzandidek munosabatda bo'lardi. Olimpiadalar va ko'rik-tanlovlar oldidan darsdan keyin qolib, bizni bog'liq iliq xotiralarni eslab, u kishining insoniy fazilatlarini, matonati, mahorati hamda fidoyiligi tasanno aytamiz. Bayramlar, yaxshi kunlarda, Xorazmga borganimizda yoki Ustoz poytaxtga kelsalar, u kishi bilan shubhatga shoshamiz.

Muhtaram Ustoz! Siz bizga faqat bilim bermadingiz, siz bizga umrni qanday mazmunli yashash, kasbni qanday sevish va Vataniga qanday xizmat qilish darsini o'tdingiz. Biz erishgan har bir natija zamirida sizning duolaringiz va zahmatli mehnatingiz yotibdi. Ulug' yoshingiz qutlug', muborak bo'lsin, aziz Ustoz! Biz shogirdlaringiz siz bilan hamisha faxrlanamiz. Baxtimizga doim sog'-salomat bo'ling!

yo'lga qo'ygani edi. Bu o'sha davr uchun haqiqiy g'oliblik, kelajakni oldindan ko'ra bilish edi. Natija esa bugun ko'z o'ngimizda: sinfdoshlarimiz orasida malakali shifokorlar, xalqaro grossmeysterlar, iqtisodchilar, AT mutaxassislari, dasturchilar, tarjimonlar va fidoyi pedagoglar bor. Ustozimiz biz o'quvchi-shogirdlarga dunyo eshiklarini ochib bergan edi.

Qolaversa, Anora opaning qo'llab-quvvatlashi va maktabdagi sportga berilgan e'tibor natijasida oramizdan jahon chempionlari yetishib chiqdi. Karate bo'yicha jahon arenalarida yurt bayrog'ini baland ko'targan, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Shirin Rahimova kabi qizlar butun maktabimiz, tumanimizning faxri edi.

Anora opaning rahbarlik salohiyati maktabdagi qizg'in ma'naviy-ma'rifiy muhitda yaqqol namoyon bo'lardi. Bizning maktabda o'quv yili shunchaki darslardan iborat emas edi. Har yili o'tkaziladigan "Maktab faxri" ko'rik-tanlovi sinflar o'rtasidagi haqiqiy sog'lom raqobat va do'stlik bayramiga aylangan.

Ustozimiz san'atni ham ilm kabi qadrlaydi. "San'at bayrami" tadbirlarida yakka va jamoaviy bo'lib aytilgan ashulalarimiz, xor jamoalarimizning chiqishlari hamon quloqlarimiz ostida yangraydi. Maktabimiz o'quvchilari san'atning turli yo'nalishlari bo'yicha respublika tanlovlarida g'oliblikni qo'ldan bermasdi. Bu muhit bizda o'zimizga bo'lgan ishonch va jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantirgan.

Yaxshi rahbar – har bir o'quvchining ichidagi uchqunni ko'ra oladigan va uni alangaga aylantira oladigan insondir. Anora opa aynan shunday rahbar bo'lgani uchun ham, bugun biz qaysi sohada bo'lmaylik – ilmda, sportda, san'atda yoki AKT sohasida u kishining tarbiyasi va o'g'itlari bilan muvaffaqiyat qozonmoqdamiz.

Onam ham ushbu maktabda 28 yil davomida Ustoz bilan yelkadosh bo'lib mehnat qildi. Onam ham nafaqat ish faoliyatida, balki katta hayotda ham Anora opaning o'rni beqiyos ekanini ko'p bora ta'kidlaydi. Ustozning nomini hurmat bilan tilga oladi. Oila davrasida hamon Anora opa bilan bog'liq iliq xotiralarni eslab, u kishining insoniy fazilatlarini, matonati, mahorati hamda fidoyiligi tasanno aytamiz. Bayramlar, yaxshi kunlarda, Xorazmga borganimizda yoki Ustoz poytaxtga kelsalar, u kishi bilan shubhatga shoshamiz.

Muhtaram Ustoz! Siz bizga faqat bilim bermadingiz, siz bizga umrni qanday mazmunli yashash, kasbni qanday sevish va Vataniga qanday xizmat qilish darsini o'tdingiz. Biz erishgan har bir natija zamirida sizning duolaringiz va zahmatli mehnatingiz yotibdi. Ulug' yoshingiz qutlug', muborak bo'lsin, aziz Ustoz! Biz shogirdlaringiz siz bilan hamisha faxrlanamiz. Baxtimizga doim sog'-salomat bo'ling!

E'zoza QURBONOVA, filologiya fanlari doktori (DSO)



Xotira va qadr o'lmaydi

AVLODLARGA MEROS EZGULIK

yoxud bobom sabog'i

Xotiralar yaxshilik ila nurlanar...

Inson hayoti oqar daryo, biroq uning qa'rida shunday xotiralar to'liqini mavj uradiki, umr degan qutlug' tushunchani abadiyatga daxldor qilib qo'yadi. Buni oddiygina elning xotirasi yoki og'izdan og'izga o'tib kelgan yaxshilik timsolida ham ko'rishimiz mumkin. Xotira o'lmaydi, xotira inson qadrini ulug'lab, uning obro'sini tiklaydi, deganlari shu bo'lsa kerak. Bu aqidani bobom Sayidmurod Matyoqubov misolida ham faxrlanib aytishim mumkin.

U kishining el ichidagi obro'-martabasi mohiyatini keyinchalik, ulg'ayib, u-bu narsaga aqlim yetgach angladim. Yaxshilikning ildizidan borliqni charag'on et-guvchi nur taralgani bois ham bu dunyo bog'boni – Inson zoti uchun ortida ezgulik bog'i qoldirishdan o'zga saodat bo'lmasa kerak. Ha, mening nazdimda, bu hayotda har kim qo'lidan kelguncha yaxshilik urug'ini sochsagina, olam tiniq, hayotimiz mazmunli kechadi. Demak, odam bolasi o'z umrini odam bo'lib yashab o'tishi uchun ortida faqatgina yorug'lik, ya'ni yaxshilik izlarini qoldirish kerak ekan. Bugun rahmatli bobom Sayidmurod Matyoqubovni eslasam, xayolimda bu dunyoda odam bo'lib yashashni istasang, o'zgalarga yaxshilik qil, bu narsa qiyinmas, kerak bo'lsa, o'z-o'zingni tarbiyalash yo'li hamdir, degan o'y kechadi. Bu bobom tufayli ko'nglimda uyg'ongan tuyg'u –

o'z-o'zimga sabog'imdir... Muhimi, biror kishi qalbida iliqlik uyg'ota olsang bas...

Ta'qdir sinovlarida toblangan umr...

Bobomning bolaligi Birinchi jahon urushi va sho'rolar hukumati o'rnatilish davriga to'g'ri keldi. Hayot qiyinchiliklari, ochlik va yupunlik erta ulg'aytirdi. Ikkinchi jahon urushi esa uning yigitlik davrini ayovsiz sinovdan o'tkazdi. 20 yoshida o'lim bilan ro'baro' keldi. Jang maydonida oyog'idan ayrilib qaytdi. Biroq taqdirga tan bermadi, nolimadi. Umrining oxirigacha Urganch paxta tozalash zavodida oddiy ishchi bo'lib mehnat qildi. Uning sukutida bir olam ma'no, har bir qadamida og'ir vazminlik bor edi. Bola qalbim bilan his qilganman, botinida tog'day ulkan bir sinoat cho'kib yotganga o'xshardi... Nega-ki, bobom duch kelganda har bir odamning yuziga tabassum yoyilar, hamma u kishidan mamnundek tuyulardi menga.

Sukut

Maktabda a'lochi edim, bobom bundan ich-ichidan faxrlanardi. Bir kuni meni komsomol safga qabul qilishdi. Qo'limda Lenin suvrati tushirilgan bilek va ko'ksimda yaltiroq nishon bilan uyga yugurib keldim. Bobomga ko'rsatdim. U kishi biletni qo'lga olib, uzoq tikildi va chuqur xo'rsinib, qaytarib berdi. O'shanda bu

xo'rsinish zamirida nima borligini tushunmagan ekanman.

Bugun anglaymanki, ushbu xo'rsinish – ajdodlari xo'jazoda, ilm-ma'rifatli bo'lgani uchun tazyiq ko'rgan, e'tiqodi va dunyoqarashi sho'ro mafkurasiga begona bo'lgan insonning iztirobi edi.

Bobom o'tmish haqida gapirishni yomon ko'rardi, balki qalbidagi jarohatlarni tirnamaslik uchun sukutni afzal bilgandir.

Omonat...

1982-yilning bahori edi. Bobom bilan Xonqa tumanidagi "Sayid ota" masjidiga, katta bobom Sayid Muhammad-yoqubxo'janing qabrini ziyorat qilgani bordik. Qur'on tilovatidan so'ng bizni masjid imomi kutib oldi. Imom Haj safaridan qaytgan, yuzlaridan nur yog'ilardi. Suhbat asnosida imom hayratlanarli gap aytdi:

– Xo'jam, otangiz Sayid Muhammad-yoqubxo'janing menda omonati bor. Men yashayotgan uy asli sizniki, otangiz vaqtda bergan. Endi omonatni qaytarib oling, men uyli-joyli bo'ldim.

Men bobomga qaradim. O'sha payti bobom farzandlar tashvishida, oddiy zavod ishchisi, nogironlik nafaqasi bilan kun ko'rayotgan inson edi. Har qanday odam bu imkoniyatni Xudoning bergan ne'mati deb qabul qilishi mumkin edi. Lekin bobomning javobi meni butun umrga hayratda qoldirdi:



– Taqsir, otam bu uyni sizga o'zi rozi bo'lib berganmi?

– Ha, albatta, – dedi imom.

– Unda, otam rozi bo'lib bergan tuh-fani men qaytarib ololmayman. Otam rozi bo'lgan bo'lsa, biz ham rozimiz!

Meros

Bobom 1984-yili foniy dunyoni tark etdi. U kishi dunyo matohlarini bir tiyanga olmaydigan, nafsini jilovlay olgan haqiqiy Sayid, chin ma'nodagi ziyoli edi... Bobomning merosi – imorat yoki boylikmas, o'zgalarga yaxshilik qilish da'vati, o'z zuriyodlari – farzandlari va biz nevara-chevaralariga qoldirgan yuksak ma'naviyat, pok nom va mardlikdir... Bundan ulug' tuhfa bo'lishi mumkinmi?

Men mana shunday insonning nevarasi ekanimdan faxrlanaman!

Ilhom MATYOQUBOV

BOBOMNING YO'LI – MENING YO'LIM!

Bobom Qurbonboy Nabiyev Qamashi qishlog'i ahlining yuragidan joy olgan inson, mohir pedagog va notiq, "Xalq ta'limi a'lochisi" edi. U haqida ko'plarga gapirgim, hikoya qilgim keladi.

Bobom nafaqat tarix va geografiya fanlari bilimdoni, balki jamiyatda yuksak e'tibor qozongan jamoat arbobi hamda oilamizning ma'naviy ustuni edi.

Qurbonboy Nabiyev 1951-yil 1-sentabr kuni Kasbi tumani Qamashi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. 1967-yili qishloqdagi 15-maktabni a'lo baholar bilan tamomlab, o'sha yiliyoz Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining tarix-geografiya fakultetiga o'qishga kiradi. Institutni imtiyozli diplom bilan bitiradi va o'zi tahsil olgan maktabda tarix va geografiya fanidan sa-boq bera boshlaydi.

Qurbonboy Nabiyev o'zining chuqur bilimi va namunali xulqi bilan jamoa orasida katta obro'-e'tibor qozonadi. Shuning uchun ham maktab jamoasi 1974-yili u kishini ilmiy bo'lim mudiri lavozimiga tavsia etadi. Bobom ushbu mas'uliyatli lavozimda umrining oxiriga qadar samarali faoliyat yuritdi. U kishi nafaqat rahbar, balki iste'dodli va fidoyi o'qituvchi sifatida ham o'zini namoyon etdi. U ilmiy bo'lim mudiri bo'lgan davrda maktab o'quvchilari fan olimpiadalarida faol qatnashib, yuqori natijalarga

erishishdi. Shuningdek, uning fanga doir ko'plab maqolalari tuman va viloyatda e'tirof etilgan. Bobomning ilmiy salohiyati faqat maktab bilan cheklanib qolmagan, maqolalari viloyat gazetalarida muntazam chop etilgan. "Iqtisodiy bilim asoslari" fani bo'yicha ham tuman uslubiy birlashmasi rahbari sifatida ko'plab shogirdlariga o'rnak bo'ldi.

Ustoz-muallimning boshqalardan ajralib turadigan yana bir jihati – so'zga chechanligi edi. Bobom uzoq yillar davomida tuman, viloyat va respublika miqyosida mohir notiq sifatida turli mavzularda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borgan. U kishi nafaqat pedagog, balki tili shirin suxandon ham edi. Qishlog'imizdagi to'y-hashamlar bobom ishtirokisiz o'tmasdi, u kishi bor joyda hamisha fayz va mazmunli suhbat bo'lar edi.

Afsuski, bevaqt o'lim 1995-yili bobomni oramizdan olib ketdi. Uning vafoti nafaqat oilamizni, balki butun qishloqdoshlarni chuqur qayg'uga soldi. Shogirdlaridan biri Xudoyberdi Ashurov ustoziga bag'ishlab yozgan marsiyasida "Qamashining bulbuli tindi" degan edi.

Bobomning xizmatlari besamar ketmadi. Bugun u kishi tarbiyalagan farzandlar ham ota yo'lidan borib, el-yurt xizmatida kamol topmoqda. Qizi Intizor xuddi bobomdek 15-maktabda o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritmoqda. O'g'li Yahyo Nabiyev esa hozir O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" teleradiokanali ijodiy birlashmasining "O'zbekiston 24" radiokanalida bosh muharrir o'rinbosari lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Bobomning nabirasi o'laroq, men ham bugun cheksiz g'urur bilan o'qituvchilik kasbida sidqidildan ishlamoqdaman. Hozir O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakultetining 1-bosqich magistriman. Bobomdek bilimli va fidoyi tarixchi bo'lish orzusi meni nafaqat ilm yo'liga, balki ustozlik kasbiga ham yetaklab keldi.

Bobomning poydevori mustahkam bo'lgan ma'rifat maktabi biz kabi avlodlar intilishi va amaliy faoliyati bilan hamisha yashaydi.

Shogirdlar ardog'ida – Ustoz siyмосi

Bobom Qurbonboy Nabiyev xotirasiga

Qamashi bag'rida bir quyosh edi,
Ilmning yo'lida tog'dek bardosh edi.
Qurbonboy Nabiyev – nurlu bir siymo,
Ham rahbar, ham ustoz, ham sirdosh edi.



Tarix sahifasin ochganda har gal,
Bobomning ovozi kelar muazzam.
Nizomiy bog'idan olgan cha ta'lim,
Ziyo ulashmoqni bilgandi har dam.

Suxandon tili-yu, o'tli nigohi,
Har bir shogirdining bo'ldi panohi.
"Xalq ta'limi a'lochisi" degan nom,
Halol mehnatingiz oliy guvohi.

Jannat bog'larida bo'ling siz omon,
Duolar qilamiz bizlar har zamon.
Bobojon, ismingiz mangu yashaydi,
Biz – sizni sog'ingan munosib karvon.

Ra'no QURBONBOYEVA,
O'zMU magistranti,
Yangi hayot tumanidagi 32-maktabning
tarix fani o'qituvchisi

Aksariyat ijod ahli yangi bitik yaratishni sarlavha tanlashdan boshlaydi. To'g'ri-da, sarlavhasiz qoralama hali ism qo'yilmagan chaqaloqqa mengzaydi. Nima deb ataringni bilmaysan. Qayerdadir o'qiganim bor, mashhur adiblardan biri: "Yaxshi nom, yarim asar" degan ekan.

Anchadan buyon jonbo'zsoylik qalamkash og'am – O'rolboy Qobil ijodiga bir ser solishni o'ylab yurgan, maqolaga nom tanlashga ham ulgurgan edim – "Dasht xarakterlari musavviri".

Ochig'i, bildirilajak munosabatga mazkur sarlavha chippa yopisha-



digandek tuyulgan, faqat hafসা qilib o'tirsam bas, besh-olti qog'ozni qoralab tashlash siyog'im bor edi (o'zi shu qurmagur birodarimning matbuotda e'lon qilingan har bir bitigi men uchun kichik bir bayramga aylanadi, desam sira mubolag'asi yo'q). Ilk satrlar oq qog'ozning siynasiga ekila boshlagach, negadir fikrim o'zgarib, uni "Xirgoyi" deb atagim keldi.

Nega xirgoyi? Bu atamaning oddiy qishloq muallimi, qolaversa uning kamtarona ijodiga nima daxli bor?

Ko'p sonli savollarga javob izlashdan oldin xirgoyi atamasiga oydinlik kiritib olsak.

Borliq o'z ibtidosi va intihosiga ega. Roviylar rivoyat qilishicha, birinchi so'z yaralgan, ilk kalom parvardigori olamga mansub bo'lgan ekan. Tag'in bir aksioma – Yaratganning kalomi lisoniy bo'lmagan. Ammo u qandaydir tarzda hukm etilgani ayon, ijro uslubini baholashga esa biz mo'min-musulmonlarning quvvayi hofizimiz o'z.

Aytaversak gap ko'p, shu so'z keyinchalik alam – yig'i, shodlik – aytim ko'rinishida turlanib boravergan...

Bolaligimizda bahor, yoz oylari to'rt-besh qo'y-echkini oldimizga surib, erta tongdan bepoyon kengliklar bag'riga o'tlanardik. Ketaverasan, ketaverasan...

...U yog'ing o'tloq, bu yog'ing o'tloq, yashillikdan mosuvo yer yo'q, qir-adirlarga qip-qizil qizg'aldoqlar gilam yanglig' to'shalgan, nima deyarini, his-hayajonlarini qay tarzda jilovlashini bilmaysan. Shu payt ko'kayini bir o'tliq so'z ohangga aylanib, yorib chiqadi.

Uning sehrli og'ushiga tashlab ovutasan o'zingni, o'zlingni...

...Egam qori degan devor-darmiyon qo'shnimiz bo'lardi.

Katta bilan katta, kichik bilan kichik edi, bu odam. Men ko'pincha qo'y boqishga shu kishining eshagiga mingashib chiqardim. Yo'l olis, eshakning bir zayldagi "lo'q-lo'q"i ko'p o'tmay zeriktirar, o'yinqaroq dilim o'zga bir zavq-shavqni istar, eshakdan tushib ketarning-da yo'lini topolmas edim. Shu payt

XIRGOYI

Esse

Vaqt – uch-

qir ot, o'quvchilik yillari ortda qolib, o'sha suluv turmushga chiqadigan bo'ladi. Uning vasliga yetish sinfdoshlarning birontasiga ham nasib etmaydi, do'stlar maslahatlashib, "bevafo malak"ning to'yiga borishmaydi, ammo o'zlari ota bo'lishgach, o'n beshi bir-biridan xabarsiz o'n besh jajji qizalog'iga uning nomini qo'yishadi.

Bu she'r oddiygina tizilgan so'zlar majmuyi emas, go'zal va latif tuyg'ular qissasi edi.

...To'y o'tdi, uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar tarqab ketishdi, shu jumladan "Qamashi legion" ham. Biroq O'rolboy Qobilning she'ridan menga ancha-muncha tashvish – asorat qoldi. Ayrim ukaxonlar ertami, kechmi, ularga farqi yo'q, darvozamni qoqib kelishadigan odat chiqarishdi:

– Shoir boboni bir tomosha qilaylik...

"Shoir bobo"ng buyumdir-a, istagan paytingda "ma" deb qo'lingga chiqarib bersam", noiloj kutilmagan mehmonlarni uyga boshlayman. To'ydan tushirilgan tasvir videomagnitofonga qo'yiladi. Albatta, to'y-to'mmiqni shunchaki tomosha qilib bo'lmaydi, jiz-biz va "haligi"dan degandek...

Ba'zan "nega men bironing she'ri uchun haq to'lashim kerak ekan" deb g'ayiriligim tutadi-da, mehmonlarni ichkariga boshlab o'tirmay, O'rolboy og'aga qo'ng'iroq qilaman (albatta gohida kunduz, gohida yarim tun bo'ladi):

– Oshna, o'sha she'ringizni o'qimasangiz bo'lmaydi, muxlislaringiz iltimos qilib, holi-jonimga qo'yishmayapti.

Qo'l telefonim ovozi ko'tarib, mehmon kutish tashvishidan forig' bo'lganimga sevinaman: "Endi jabrini O'rolboy Qobilning o'zi tortaversin".

Lekin baribir ortiqcha dahmazalardan to'y tasvirini diskka ko'chirtirib, tarqatganimdan so'nggina batamom forig' bo'ldim (har holda mehmon jo'natish tashvishidan disk sovg'a qilish arzonroq tushadi-da).

Eng qizig'i, qishlog'imiz yoshlaridan ba'zilari haligacha shu she'rni yod olib, xirgoyi qilib yurishibdi.

O'rolboy Qobilning ko'zi tiyran, ak-sariyatimizga oddiygina tuyulgan detal-

dan yodda qoladigan esse yoki hikoya yarata oladi. Birgina misol:

Jonbo'zsoyda "Aylanay momo" degan enaxon yashaydi. Uni qachonlardir Obloqul chavandozning ko'ngli sust ketib, olis ovuldan olib qochgan. U bir umr, keksaga ham, yoshga ham "aylanay" deb murojaat qiladi. Oqibat eldoshlari orasida o'z nomi "aylanay momo" bo'lib qoladi. Kunlardan bir kun Haydar bug'oltir qishloq xonadonlaridan birida tutilayotgan to'y dasturxonini sabzisini qi-yib, o'tirganlarga savol beradi:

– Baxtiyor qassob aytmasin, qolganlaridan bitta so'rovim bor, qani aytinglar. Aylanay momoning asli oti kim bo'lgan? Erkak aytsa to'n, ayol aytsa kalish olib beraman, bilmasanglar, navbati bilan momo bilan meni mehmonga chaqirasizlar.

Davradagilardan birontasi bu kutilmagan savolga javob berolmagach, Haydar bug'oltir Aylanay momoning odamlarga qilgan bir necha yaxshiliklarini sanab:

– Yutqazdinglar, endi o'zim aytaman, Aylanay momoning ismi... Aylanay momo-da! – deydi.

Endi insof bilan tan olaylik, qaysi birimizning (o'zimizni qalam ahlidan chog'laganlarimizning) qishlog'imiz yoki mahallamizda elning sovug'i bilan kirib, issig'i bilan chiqadigan kayvoni "aylanay momo"lar, "o'rgilay bobo"lar yo'q. Bor, istaganimizcha topiladi, ammo shuning hikoya uchun yaxshigina detal ekanligi fahmiga ko'pda yetavermaymiz.

Bir yili Toshkentdan yozuvchi Nor-to'xta Qilich qo'ng'iroq qildi:

– Abdunabi, anovi O'rolboy Qobilni taniysizmi, sizlar tomondan-ku?

– Taniyman, taniganda qandoq, og'am bo'ladi.

– O'zim ham shunday deb o'ylagandim. Bilasizmi, shu odam katta yozuvchi, bitiklarida siqqliq bor, ortiqcha so'z topolmaysiz, o'ziga xos obrazlar yaratadi, afsuski, shaharda o'tirib qolgan adabiyotshunoslarimiz shunday ajoyib ijodkorni payqashmayapti.

Bu O'rolboy Qobil ijodiga berilgan munosib baho edi. Shunday e'tirofni "Yoshlik" jurnali bosh muharriri Nurilla Chori, "Hurriyat" gazetasi bosh muharriri Abdurasul Jumaqul, jurnalist va yozuvchi Qulman Ochil, shuningdek, yosh ijodkor ukalarim Shodmonqul Salom, Jasur Kengboy, Xoliyor Safar, Bobur Elmurodlardan ham eshitganim bor. "Qashqadaryo" gazetasida uzoq yillar mas'ul kotib bo'lib ishlagan Nuriddin Egam esa ikki gapining birida:


– O'rolboy akaning uslubiga qoyilman, – deydi...

...Yaqinda shu adib menga "Dashtliklar" deb nomlangan yangi kitobini sovg'a qildi. Unga kirgan asarlar janri muallif "hikoyalar, esselar, qissalar" deb belgilabdi. Kim nima demasin, men o'z fikrimdan tonmayman – bu O'rolboy Qobilning xirgoyilar manzumasi.

Ishonmasangiz muallim ijodkorning bitiklarini siz ham mutolaa qilib ko'ring!

Abdunabi ABDIYEV

Xalqaro sharh

**"SOVUQ URUSH"**

Bir tarixchi olim dunyo tarixini "Urushlar tarixi" deya qayta nomlashni taklif qilgan ekan. Nega desangiz, tarixchilarning hisob-kitobiga ko'ra, dunyo o'zining uzoq va yaqin o'tmishida bor-yo'g'i 72 yilgina urushsiz yashagan. Qolgan barcha davrlarda hali u yerda, hali bu yerda katta-kichik urushlar olovi alanga olib turgan. Ulardan eng dahshatlisi – Ikkinchi jahon urushi bo'lib, unda 50 million, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 70 milliondan ziyod odam nobud bo'lgan. Jarohat olib, hayoti buzilib ketgan insonlarning esa aniq hisobi yo'q. Eng afsuslanarlisi shundaki, ushbu halokatli muhorabadan keyin ham dunyo tinchimadi. Uning ortidan boshlanib, uzoq yillar davom etgan mahalliy harbiy mojarolar va "Sovuq urush" jahon xalqlari hayotini yana zaharlashda davom etdi.

1946-yili AQSHning Fulton shahridagi Vestminster kollejida Buyuk Britaniyaning sobiq va bo'lg'usi bosh vaziri Uinston Cherrill (o'sha paytda u saylovni boy bergan, o'zi hukumatga muxolifatda edi, ammo keyinchalik yana g'olib chiqib, bosh vazirlik lavozimiga saylangandi) talabalar oldida so'zga chiqib, demokratik g'arb dunyosini sharq tomondan paydo bo'lgan yangi xatardan ogoh etdi. Ammo u nutqida "ingliz tilli mamlakatlar" degan iborani qo'llagan bo'lsa, sobiq sho'ro rahbarlari Cherrillni millatchilikda aybladilar va jahon afkor ommasini "yangi Gitler" paydo bo'lganidan ogohlantirishdi. Aslida Cherrill o'z chiqishida SSSR Sharqiy Yevropani ozod qilish bahonasida Polsha, Sharqiy Germaniya, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya va Yugoslaviya singari mamlakatlarni kommunistik mafkura asosida o'ziga tobe davlatlarga aylantirib olganini qattiq tanqid qilib chiqqandi. Natijada G'arbiy va Sharqiy Yevropa orasida "temir parda" paydo bo'lgani, buning oqibatida dunyo ikkiga bo'linib ketishi xatari borligi haqida ogohlantirdi. Keyin yuz bergan voqealar uning yuz foiz haq bo'lganini to'liq isbotladi. Ushbu bo'linish siyosatshunoslar tilida "sovuq urush" deb nomlandi va u naqd qirq yil davom etdi. Qariyb yarim asrga cho'zilgan tinch raqobatda kommunistik tuzum o'zining batamom yaroqsizligini namoyon qildi va uning bosh istehkomi – sho'ro mamlakati tanazzulga yuz tutdi. O'sha payti dunyoda yuz millionlab kom-

munistlar bo'lishiga qaramasdan, sotsialistik dunyo inqirozini hech kim to'xtatib qololmadi. Oqibatda 1991-yil dekabr oyida qizil imperiya, uning ortidan jahon sotsialistik lageri tarix chiqindixonasiga uloqtirildi.

Sobiq ittifoq tarqalib ketgach, undagi respublikalar o'ta qiyin vaziyatga tushib qolishdi. Yillar davomida shakllangan, o'zi shundog'am oqsab turgan iqtisodiyot barbod bo'ldi. Sobiq sotsialistik davlatlar va ittifoq doirasidagi umumiy bozor tarkibida bo'lgan respublikalar orasidagi hayotiy rishtalar uzildi. Xalqlar muhtojlik va qashshoqlik iskanjasiga tushib qoldi. Ana shunda yana g'arb ko'makka keldi. Kingadir AQSH, kingadir Germaniya, yana kimlargadir Angliya, Fransiya, Xitoy, Eron va Turkiya yordam qo'lini cho'zdi. Ko'p o'tmay MDH mamlakatlari orasida ichki nizolar yuzaga chiqdi. Ozarboyjon, Moldova, Tojikiston, Chechenistonda fuqarolar urushi boshlandi. Bu orada kecha qon-qardoshlikda yashab turgan xalqlar ichidan turli-tuman tussdagi millatchi unsurlar bosh ko'tardi. Ularning zarbdor guruhi bo'lmish rus buyukdavlatchi shovinistlari tarixni taftish qilib, mag'lubiyatlari uchun dunyo hamjamiyati bilan qaytadan hisob-kitobga kirishdilar. Rossiya rahbari Vladimir Putinning 2007-yildagi Myunxen shahrida qilgan chiqishidan so'ng ziddiyat qiyofasi tobora aniqlasha boshladi. Uning fikricha, yangi dunyo tartibi adolatsizlaracha qurilgan va uni isloh qilish zarurati paydo bo'lgan emish. Ko'p o'tmay amaliy harakatlar boshlandi. Gruziya, Moldova va Ukrainaning bir qismi zabt etildi. Belarus Respublikasi Rossiyaga qaram vassal davlatga aylantirildi. O'rta Osiyoda paydo bo'lgan yangi mustaqil mamlakatlarga yana tepadan turib qarala boshlandi. Xullas, sobiq ittifoq hududida yangi geosiyosiy manzara shakllana boshladi.

TEGIRMONGA TUSHGAN TRAMP

Dunyo miqyosida kuchayib borayotgan o'ng populistik oqim shiddati g'arbdagi demokratik jamiyatlarni ham chetlab o'tmadi. Ular keyingi davrda keng tush olgan globallashuv harakati g'arb mamlakatlariidagi demografik manzarani o'zgartirib yuborayotganidan chuqur tashvishga tushib qoldilar. Rossiyada rus bo'lmagan aholi, Germaniyada turklar, Fransiya

musulmonlar, Britaniyada hindistonliklar, Amerikada esa ispan tilli fuqarolarning ko'payib borayotgani millatchi unsurlarni chinakam bezovta qilib qo'ydi. Ushbu voqealarning natijasi o'laroq, AQSHda radikal respublikachilar, Fransiya da lipenchilar, Germaniyada o'ng muqobil kuchlar, Avstriyada ozodlik partiyasi singari irqchi-millatchi firqalarning mavqeyi kuchaydi. Bu holatni biz AQSHdagi respublikachilarning prezidentlik saylovlariidagi ketma-ket g'alabasi misolida yaqqol ko'rdik.

Donald Tramp hokimiyat tepasiga kelishi bilan AQSHga kirib kelayotgan muhojirlar oqimini to'sdi, hatto bir muddat grinkarta bilan amalga oshiriladigan qonuniy migratsiya harakatini ham to'xtatib qo'ydi. Mamlakatda nolegal ishlab-yashab turgan xorijiy fuqarolar qo'pol ravishda quvg'in qilindi. Tug'ilgan bolalariga esa bundan buyon AQSH fuqaroligi berilmaydigan tartib joriy etilmoqda. Bu borada Tramp o'zi bilan hamfikir bo'lgan siyosatchilarni yaqindan qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Uning Viktor Orban, Vladimir Putin, Benyamin Netanyahu singari yirik davlat arboblari bilan bo'lgan qalin munosabatlari sababini ham shu siyosiy rakursdan kuzatsak tushunarli bo'ladi. Aksincha, umuminsoniy demokratik qadriyatlarini yoqlab kelayotgan siyosatchilar Trampning doimiy tanqid nishoniga aylanib bormoqdalar. U shungacha borib yetdiki, demokratlarni Amerikaning birinchi raqamli dushmani deya e'lon qilib yubordi. Uning nazarida, Barak Obama va Jozef Bayden kabi sobiq demokrat prezidentlar davlatga xiyonat qilgan siyosiy arboblari sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, Eron bilan sodir bo'lgan keyingi voqealar uning siyosiy qarashlarini yanada keskinroq o'zanga burib yubordi. Aslini olib aytadigan bo'lsak, bu urush Tramp uchun hayot-mamot masalasiga aylandi. Urush Eronni harbiy va iqtisodiy jihatdan kuchsizlantirgan bo'lsa-da, siyosiy-ruhiy tomondan tiz cho'ktira olmadi. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, Donald Tramp siyosat bobida dumbul bo'lsayam, diplomatiya borasida pixini yorgon tulkak odam. U 300 dan ortiq da'vo-arizalar nishoni bo'lib, 32 marta sud hukmidan qutulib suvdan quruq chiqqan. Biznesi 6 marta bankrot bo'lib, prezidentligi mobaynida ham 3 marta impichment xataridan omon qolgan. Bularning bari uning naqadar ustasi farang, dog'uli kimsa ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Ba'zilar Trampni aqlidan ozgan telba odam sifatida ko'rmoqchi bo'ladi, afsuski, ularning shirin xayollarini chippakka chiqarishga to'g'ri keladi. Masalan, jinni hech qachon golf o'ynab g'olib chiqolmaydi. Prezident Trampning telba-teskari qiliqlari va gap-so'zlariga kelsak, bizning o'zbekona til bilan aytganda u "puxtajinni". Buni shundan bilib olish mumkinki, u har qanaqa tentak bilan ham til topisha oladi. O'zining "Kelishuv san'ati" degan kitobida Tramp, hatto raqiblar bilan qanday til topishish yo'llari haqida batafsil hikoya qilib bergan. Uning bu kitobiga g'oyibona baho beradigan bo'lsak, men hali birorta jinnining kitob yozganini ko'rmaganman. Shu ma'noda, Tramp keyingi xatti-harakatlari bilan Amerika uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni hal qilishga bel bog'lagan. Bu borada Eron bilan boshlangan urush uning bir necha maqsadlarini amalga oshirib berishi lozim. Birinchidan, AQSHning dunyodagi liderlik rolini mustahkamlash, ikkinchidan xalqaro maydonda Xitoy, Rossiya, Eron, Shimoliy Koreya singari gappa kirmaydigan davlatlarni zaiflashtirish, uchinchidan, energetik resurslar bozorida yakka xo'jayin bo'lib olish va pirovardida, buyuk siyosiy arbobga aylanib, o'z nomini tarix sahifalarida zarhal harflar bilan yozdirish. U bu maqsadi yo'lga g'ov bo'ladigan kuchlarga ham, kishilarga ham omonlik bermoqchi emas.

Bunda Trampning avval yashab o'tgan jahongirlardan farqi shundaki, uning qo'liga beqiyos siyosiy, iqtisodiy, harbiy, intellektual qudrat va zehniyatida o'ta kelishuvchanlik qobiliyati mavjud. Bularning har biri azal-azaldan tarixiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni hal qiluvchi asosiy omillardir. Shu ma'noda, Tramp bu gal ham tarix tegirmonidan yelkasida bir qop un bilan bus-butun chiqsa sira ajablanadigan joyi yo'q.

UKRAINA NATOGA QARSHI

Bir qarashda sarlavha mutlaqo mantiqsiz bo'lib tuyulishi mumkin. Ammo maqolani oxirigacha o'qisangiz, uning tub mohiyati oydinlashadi. Ukraina armiyasi bultur Boltiqbo'yida bo'lib o'tgan "Hedgehog – 2025" harbiy mashqlarida NATO armiyasi askarlari bilan sinov mashqlari o'tkazdi. Unda "dushman" rovida qatnashgan ukrain askarlari natochilarning ikki motorlashgan batalyonini olti soatlik "jang" davomida to'liq tor-mor qilishga erishdilar. Qizig'i shundaki, natochi askarlaridan birotasi ham tirik chiqmagan ushbu beomon "jang"da Ukraina askarlari talafot ko'rmadilar. Hatto, biror kishi jarohat ham olmadi. Buning sababi shundaki, NATO askarlari an'anaviy usulda jang qilgan bo'lishsa, ukrainaliklar dronlar vositasida urushdi. Qisqa davom etgan kichik muhorabada ular NATOning o'nlab tanki, bronemashinasi va boshqa harbiy texnikalarini dronlar yordamida yo'q qildilar. Qochib jon saqlashga uringan NATO askarlari ham kichik dronlar yordamida bitta-bitta qirib tashlandi. Portugaliya qirg'oqlarida o'tkazilgan harbiy-dengiz mashqlarida esa ukrainalarning suvosti va suvosti dengiz dronlari NATOning yirik harbiy kemalarini qisqa muddatda suvga "cho'ktirib" yubordi. Bular bir tomondan NATO qo'shinlari zamonaviy urushga hali tayyor emasligini ko'rsatib qo'ydi. "New York times" gazetasining yozishiga ko'ra, hatto AQSH armiyasi ham arzon dronlar oldida ojiz qolmoqda. Mudofaa sanoati zarur qurol-yarog' ishlab chiqarish hajmini tezkorlik bilan oshirish imkoniyatiga ega emas. Ikkinchi tomondan esa yuqoridagi harbiy mashqlar Ukraina armiyasining qanaqa zarbdor kuchga aylanib ulgurganini ochiq namoyish qildi.

Dronlar yaratish bo'yicha Ukraina dunyodagi peshqadam o'rinlarga chiqishga muvaffaq bo'ldi. Buni shundan bilib olish mumkinki, Eron hujumiga uchragan arab davlatlari dronlar sohasida Ukrainadan yordam so'rab murojaat qilishmoqda. Shu ma'noda, ayrim harbiy ekspertlarning "endi Ukraina NATOga kirishi shart emas, aksincha NATO Ukrainaga qo'shilishi kerak" deya achchiq zaharxanda qilishlarida katta haqiqat bor. To'rt yildan oshiq muddatdan beri ukrainalarning jahondagi eng qudratli armiya bilan tengma-teng jang qilayotgani buning yorqin isbotidir. Ukraina va Erondagi urush endilikda nafaqat harbiy, balki siyosiy-iqtisodiy jabhalardagi dunyo tartibini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Jumladan, biror-bir davlat uchun boshqa bir davlat tomondan hujumga uchramaslik kafolati mavjud emas; an'anaviy usullar bilan urush olib borish mutlaqo istiqbolsiz; ko'proq qayta tiklanadigan yashil energiya manbalariga suyanish lozim; asta-sekin logistikaning quruqlikdagi yo'llariga o'tish kerak; energetik resurslar savdosida muqobil bozorlarni izlash va boshqalar. Albatta, bularning barchasi bir-ikki yilda amalga oshadigan ishlar emas. Biroq dunyodagi keyingi voqealar har bir mamlakat rahbarlarini zamonaviy muammolarga tezroq yangi-yangi yechim izlashga undamoqda.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI VAKANT O'RINLARGA TANLOV E'LON QILADI

| № | Kafedralar nomi | Kafedra mudiri | Professor | Dotsent | Katta o'qituvchi | O'qituvchi |
|----|--|----------------|-----------|---------|------------------|------------|
| 1. | "Maktabgacha va inklyuziv ta'lim metodikasi" | – | 1,25 | 1 | 3 | – |
| 2. | "Maktabgacha ta'lim menejmenti" | – | 1 | 1,25 | 2,25 | 0,5 |
| 3. | "Pedagogika va psixologiya" | – | 1 | – | 2,75 | – |
| 4. | "Ijtimoiy fanlar" | 1 | – | 2 | 2 | – |
| 5. | "Maktabgacha va musiqiy ta'lim" | – | – | 1,5 | 4 | – |

TANLOVDA QATNASHISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILISHI LOZIM:

1. Rahbar nomiga ariza.
2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa.
3. Oliy ma'lumoti to'g'risida diplom(maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha), ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari.
4. Ilmiy ishlar ro'yxati.
5. Malaka oshirganligi to'g'risida sertifikat.
6. Institutda ishlab turgan professor-o'qituvchilar

uchun oxirgi uch yillik faoliyati hisoboti hamda kafedra tavsiyanomasi.

7. Ilgari kafedrada ishlamaganlar uchun "Ochiq dars" bayonnomasi hamda kafedra tavsiyanomasi.

KAFEDRA MUDIRI HAMDA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR LAVOZIMINI EGALLASH UCHUN TANLOVDA ISHTIROK ETUVCHILARGA QO'YILADIGAN TALABLAR:

- professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, fan nomzodi, falsafa doktori(PhD), fan doktori(DSc) yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, magistr

darajasi (katta o'qituvchi), shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga egaligi;

- ta'lim tizimida 3 yildan kam bo'lmagan ish stajiga egaligi;
- ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni anglab olganligi;
- ta'lim sohasida xalqaro tajribalarni bilishi;
- ta'lim tizimining xususiyatlari, muammolarini bilishi;
- kafedra yo'nalishi bo'yicha pedagogik ma'lumotga egaligi;
- ta'lim tizimini rivojlantirishga oid amalga oshirgan intellektual faoliyati(o'quv qo'llanmalar va darsliklar, ilmiy loyihalar, maqolalar, ishlanmalar va boshqalar).

Tanlovga hujjatlar gazetada e'lon qilingan kundan boshlab 30 kun muddat ichida qabul qilinadi. Hujjatlarni quyidagi manzilga topshirishingizni so'raymiz:

Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64-uy.
Tel.: (55) 515-01-22, ichki raqam: 705, 2;
veb-sayt: <https://mtmoi.uz>,
e-mail: info@mdomoi.uz

Jalilov SHERALI Nekboyevichning 02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Mochevino-Formaldegid smolasini modifikatsiyalash asosida issiqlikka chidamli yuqori mustahkamlikka ega yelimlovchi-bog'lovchi olish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shohko'chasi, 76-"v" uy.
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz

Nasirova ZEBINISO Azizovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya hamda 14.00.02 – Morfologiya ixtisosliklari bo'yicha "Ko'p miqdorda hayz ko'ruvchi ayollarda "ona-yo'ldosh-homila" tizimi faoliyatining klinik-patogenetik xususiyatlari" (Клинико-патогенетическое исследование особенностей функционирования системы мать плацента-плод у женщин с обильными менструальными кровотечениями) mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Xikmatov JAMSHID Baxtiyor o'g'lining 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Soyaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga o'g'itlar qo'llash usullari va me'yorlarining ta'siri(Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida)" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-may kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Oliygo'k ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (74) 224-02-82; e-mail: andqxai@exat.uz

Rasulov ULUG'BEK Muqimovichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha "Acetillanish tipiga bog'liq hayvonlarda ikkilamchi immuntanqisliklar holatlarining immunobiologik ko'rsatkichlari va ularni o'simlik preparatlari bilan muvofiqlashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 8-may kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Solijonov HOJIABBAR Solijon o'g'lining 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida olingan quruq qurilish qorishmalarining xususiyatlari va texnologiyasi" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Farg'ona davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.19.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 23-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 150107, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86-uy.
Tel/faks: (73) 241-12-06; e-mail: info@fstu.uz

Yitmasova TO'HFDA Davlat qizining 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar hamda 14.00.26 – Ftiziatriya ixtisosliklari bo'yicha "Surunkali virusli hepatitlar va o'pka tuberkulozi koinfektsiyasining klinik-laborator xususiyatlari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 12-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Pulatov Madaminjon Muxammadjon o'g'lining 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida kuydirilmasdan olinadigan parдозbop g'ishtning, optimal tarkibi va texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.09.01.T.02.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 9-uy. Tel/faks: (55) 508-50-14, 508-03-12; e-mail: devon@taqu.edu.uz

Ravshanov Davron Mavlonovichning 14.00.12 – Tibbiy rehabilitologiya ixtisosligi bo'yicha "Bosh miya meningiomalari bilan og'riqan bemorlarning reabilitatsion salohiyatini prognoz qilish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Jolimbetova RAWIYA Majit qizining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Qoraqalpog'istonda g'ozaning kolleksion navlari asosida o'rtacha sho'rlangan tuproq sharoitiga bardoshli ashyolar yaratish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.10.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230101, Nukus shahri, Abdambetov ko'chasi.
Tel/faks: (61) 229-27-01, 229-25-09; e-mail: ftga_info@edu.uz

Abdirazakov AKBAR Ibroximovichning 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Nasoslarning ish rejimi o'zgarishi jarayonlarida gidrodinamik parametrlarni aniqlash va zo'riqlashlarni kamaytirish usullarini takomillashtirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/25.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-may kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

ILM – hayotining mazmuni edi

Xotira

Qalbi mehrga to'la ustozlardan biri Gavhar Qurbonova nafaqat talabchan, fidoyi rahbar-pedagog, balki ko'pchilik uchun hayot saboqlarini o'rgatgan ma'naviy yo'lchi yulduz bo'lib qoldi...

Shunday insonlar bo'ladiki, butun umrini, hayotini ilmsiz tasavvur qila olmaydi. Svetlana Gusakova ham oxirgi nafasigacha ilmiy ishlar, shogirdlar muvaffaqiyati uchun kuyunib yashagan inson.



U 1941-yili Toshkent shahrida harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. 1963-yili Toshkent politexnika institutini "O'simlik yog'lari texnologiyasi" mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. Ilmiy faoliyatini professor A.Markman rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti aspiranturasida boshlagan. Ushbu davrdagi tadqiqotlari to'yinmagan yog' kislotalarining tuzilishini tahlil qilish usulini izlashga bag'ishlangan bo'lib, natijada oksidlovchi destruksiya usuli tanlanib, takomillashtirildi. Bu esa S.Gusakovaning "To'yinmagan yog' kislotalarining destruktiv oksidlanishi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining asosini tashkil etdi va uni 1969-yili muvaffaqiyatli yoqladi.

S.Gusakovaning ilmiy qiziqishlarining asosiy sohasi – yuqori va quyi o'simliklar lipidlarini fundamental va amaliy jihatdan tadqiq etish, shuningdek, o'simlik hujayrasida lipidlar tuzilishi va funksiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashdan iborat.

Ko'p yillik tadqiqotlar natijalari uning "Beshta oilaga mansub ayrim yuqori o'simliklarning oksigenlangan lipidlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirilgan bo'lib, u 1994-yili muvaffaqiyatli himoya qilingan. S.Gusakova hamkasblari bilan birgalikda oddiy va oksigenlangan yog' kislotalarini o'z ichiga olgan triasilglitserinlarning nozik tuzilishini stereospetsifik tahlil qilish usulini ilk bor o'zlashtirdi. 9 ta o'simlik turida, jumladan g'ozada ham, triasilglitserinlarning molekulyar tuzilishi va ularning stereoizomerlarni hisobga olgan holdagi to'liq tur tarkibi aniqlandi. Shuningdek, glitserinning sn-1,2,3 holatlarida oddiy yog' kislotalari, laballen kislotasi hamda turli darajada oksidlangan kislotalar bilan eterifikatsiyalanish xususiyatlari o'rganildi.

Institut xodimlari hamda Rossiya Federatsiyasining "Biotechnika" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi olimlari bilan hamkorlikda u "Olmaliq" va "Mikrosuvotlarini yetishtirish va qayta ishlash" umumittifoq ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etgan. Ushbu dasturlar doirasida xlorellani kompleks qayta ishlash biotexnologiyasi ishlab chiqilgan hamda lipid konsentrati asosida biologik qo'shimcha yaratilgan. Mazkur biologik qo'shimcha yangi ko'pik hosil qiluvchi yuvish vositasi "Alga" resepturasida qo'llanilib, u mazkur korxonada joriy etilgan. Shuningdek, dori vositalari – ekdisten va allapinin ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan bioaktiv lipofil chiqindilar asosida biologik faol qo'shimchalar (BFQ) ishlab chiqilgan.

2008-yildan boshlab S.Gusakova rahbarligida o'simlik lipidlari asosida yangi dori vositalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar boshlangan. Romashka, kalendula va Turkiston jivuchkasi (Ajuga turkestanica) ning moyli ekstraktlarini (fitomoylar) lipofil biologik faol birikmalar bilan boyitish usuli ishlab chiqilgan hamda antioksidant, yaraga qarshi, o't haydovchi va yaralarni bitiruvchi ta'sirga ega bo'lgan "Biofitol" vositasi yaratilgan.

Professor S.Gusakova rahbarligida 3 nafar fan nomzodi va 3 nafar kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) tayyorlangan. Shuningdek, 300 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan yuqori baholangan. Svetlana Gusakovaning ilmiy faoliyati va fan sohasidagi barcha xizmatlari munosib taqdirlangan. 2021-yili O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan, 2023-yili esa "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan.

Professor S.Gusakovaning butun mehnat faoliyati fanga sadoqat bilan xizmat qilishning yorqin ifodasidir. Uning tabiiy birikmalar sohasini chuqur va keng qamrab olgan, tajribalarining puxtaligi hamda olingan natijalarning ishonchligi bilan ajralib turadigan ilmiy ishlari yuksak ilmiy madaniyat namunasidir.

Sobirjon NISHONBOYEV, O'zR FA O'simlik moddalar kimyosi instituti yetakchi ilmiy xodimi, kimyo fanlari doktori

U 1963-yil Uychi tumanida ziyolilar oilasida tavallud topdi. Ziyolilar muhitida ulg'ayish, kitob va ilmga hurmat bilan qarash Gavhar opaning hayot yo'lini belgilab berdi. Tumandagi 11-maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, kutubxonachilik va madaniyat sohasida puxta bilim egalladi. Talabalik yillaridayoq ustozning tirishqoqligi, intiluvchanligi va mas'uliyati ko'pchilik tomonidan e'tirof etildi.

Ustoz Sirdaryo viloyati Mehnatobod tumani markaziy kutubxonasida metodist-bibliograf sifatida ishlab, sohaning amaliy jihatlarini chuqur o'zlashtirdi. Keyinchalik faoliyatini Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy kutubxonasida davom ettirib, ilmiy muhit bilan yaqindan tanishdi. Vaqt o'tishi bilan uning tajribasi, tashkiliy qobiliyati yanada sayqal topdi.

Jamoaga munosib rahbar edi...

Keyingi yillarda Namangan davlat universiteti ilmiy kutubxonasida yetakchi kutubxonachi sifatida samarali mehnat qilib, kutubxona tizimini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. 2006–2014-yillari esa NamDU Axborot-resurs markazi direktori sifatida faoliyat yuritib, jamoaga munosib rahbarlik qildi. Gavhar opa jamoani katta oila sifatida ko'rar edi. Rahbar bo'lsa-da, hech qachon "men rahbarman" deb ajralib turmasdi. Aksincha, jamoa bilan yelkama-yelka ishlashni o'ziga odat qilgan edi. Har qanday tashkiliy ishda – hujjatlarni tartibga solish, tozalash ishlarida ham hammaga o'rnak edi.

Ustozning ilm-ma'rifat yo'lida qilgan ishlari tahsinga sazovor. Xususan, Namangan davlat universitetida Kutubxona-axborot faoliyati yo'nalishining ochilishida uning hissasi katta bo'lgan. Bu tashabbus natijasida ko'plab yoshlar mazkur yo'nalishda tahsil olib, sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib yetishmoqda.

Afsuski, hayot hamisha ham insonning orzu-rejalari bilan hamohang bo'lavermaydi. Gavhar Qurbonova 2020-yil 17-noyabr kuni 57 yoshida foni dunyoni tark etdi. Vafotidan bir kun oldin aytgan so'zlari hali-hamon qulog'im ostida jaranglaydi: "Qizim, o'qib, albatta, rahbar bo'lsang, armonim qolmasdi".

Gavhar Qurbonova bugun oramizda yo'q. Ammo uning nomi, qilgan ishlari, bergan saboqlari va qoldirgan mehr-muhabbati hanuz yashab kelmoqda. Sababi, chin ma'nodagi ustozlar umr bilan emas, qoldirgan izlari bilan yashaydi.

E'zoza YOQUBBOYEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti
Axborot-resurs markazi bo'lim mudiri



Yaxshilar yodi

Ergash G'oziyevni eslab...

Mamlakatimizda psixologiya fani doirasida salmoqli natijalarga erishilishida buyuk psixolog olimlarimizning xizmatlari beqiyos. Platon Ivanov(1891–1968), Muhammad Davletshin(1923–2011), Muhammad Vohidov(1927–1989) kabi zabardast olimlar qatorida Ergash G'oziyev(1944–2021) ham fidokorona mehnati, ilmiy izlanishlari bilan yurtimizda psixologiya fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Ergash G'oziyev 1944-yil 16-fevralda ziyolilar oilasida tavallud topgan. U oliy ma'lumotni 1969-yili hozirgi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakultetida, so'ngra Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti kechki bo'limida olgan. Moskvadagi Umumiy va pedagogik psixologiya ilmiy tekshirish instituti aspiranturasida tahsil olib, 1974-yili "Maktab o'quvchilarida umumlashtirish usullarining shakllanishi va ko'chishi" mavzusida pedagogik psixologiya ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Uning olim sifatida shakllanishida A.Luriya, A.Leontyev, O.Nikifirova, P.Galperin, N.Talizina, B.Zeygar-

nik, Y.Kabanova-Meller, A.Matyushkin kabi jahon psixologiyasiga ulkan hissa qo'shgan olimlar ta'siri katta edi.

1993-yili Moskvada "O'quvchi va talabalarda o'quv faoliyatini mustaqil boshqarishning psixologik asoslari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan va professor unvoniga sazovor bo'lgan.

Olim vatanga qaytgach 1974–1982-yillar davomida O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tekshirish institutida ilmiy xodim, sektor mudiri, 1979–1981-yillari Toshkent viloyati davlat pedagogika institutida kafedra mudiri, 1982–2010-yillarda hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida psixologiya kafedrasida mudiri, 2010–2021-yillar



kafedra professori lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Ergash G'oziyev muallifligidagi darslik va qo'llanmalar chuqur tahlil, keng dunyoqarash, nazariya va amaliyot uzviyligi tufayli o'zbek tilidagi mumtoz psixologik adabiyotlar sirasiga kirib ulgurgan. Ustozning qoldirgan ilmiy merosidan talabalar, pedagoglar, psixologlar, tadqiqotchilar hamda psixologiyaga va ilmga qiziquvchi vatandoshlarimiz, zamondoshlarimiz bah-

ramand bo'lib kelmoqda. Ergash G'oziyevning 1000 ga yaqin ilmiy maqolalari – darslik va qo'llanmalari ilmiy manba sifatida foydalanuvchilar uchun xizmat qilmoqda. Uning 50 nafarga yaqin shogirdi xalqimiz xizmatida, ilm-fan va ta'lim taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda. Shuningdek, farzandlari Fotima va Zuhra G'oziyeva ham otasining davomchilari sifatida O'zbekiston Milliy universitetida faoliyat yuritib kelmoqda.

Mo'minxon Mamatov, Botir Qodirov, G'ayrat Shoumarov, Vasila Karimova, Nuriddin Safayev, Sharif Baratov, Zamira Nishonova, Xolida Ruxiyeva kabi bugungi kunda ham o'z ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirib kelayotgan fidoyi ustozlarimiz atoqli olim Ergash G'oziyev bilan ilm yo'llarida tutashgan xotiralarini tez-tez yodga oladilar.

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, psixologiya fanlari doktori, professor Dilbar Muhammedova boshchiligidagi ustozga ehtirom sifatida respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o'tkazilgan. Ushbu an'ana bugungi kunda ham nafaqat universitetimizda, balki respublikamizning turli oliy ta'lim muassasalarida davom etib kelmoqda.

Sevaraxon OTAXONOVA,
O'ZMU Psixologiya kafedrasida
o'qituvchisi



Ochilov Ozodjon Mardiyevichning 10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha “XX asr birinchi choragi xitoy she'riyatining yangilanish tamoyillari” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 30-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 20-uy.
Tel/faks: (71) 233-34-24; veb-sayt: www.tsuos.uz, info@tsuos.uz, Tdshu@exat.uz

Siddiqova Sadoqat G'afforovnaning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimiga dual ta'limni integratsiyalash jarayonini loyihalashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Muftaydinova Shaxnoza Kiyomiddinovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Tashqi genital endometriozni tashxislash, xirurgik davolash va oldini olishda multidissiplinar yondashuv” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-28-25, 150-28-28, (71) 214-83-11; e-mail: info@tma.uz

Pulatov Sherdor Nematjonovichning 09.00.03 – Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha “Sharq va G'arb madaniy muloqotida Mahatma Gandi ijtimoiy-antropologik konsepsiyasining integral tahlili” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 16-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Paluanov Iklasbay Daribayevichning 14.00.33 – Jamoat sog'lig'ini saqlash. Sog'liqni saqlashda menejment ixtisosligi bo'yicha “Endemik mintaqada Hanzen(lepra) kasalligining oldini olish, barvaqt aniqlash, davolash va barqaror elminatsiyasiga erishishning tashkiliy muammolariga zamonaviy yondashuv” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-28-25, 150-28-28, (71) 214-83-11; e-mail: info@tma.uz

Nazarov Vahobjon Shamshidinovichning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fransuz tili) ixtisosligi bo'yicha “Multimedia ta'lim vositalari asosida o'quvchilarning fransuz tili bo'yicha nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim tizimi misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi,

G-9 “A” mavzesi, 21-uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjt@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

Norboyev Zafar Abdumuminovichning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (arab tili) ixtisosligi bo'yicha “Filologik yo'nalishdagi OTMLarda CEFR mezonlari orqali yangi avlod darsliklarini yaratish texnologiyasi(arab tili misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi,

G-9 “A” mavzesi, 21-uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjt@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

Xayitov Laziz Milionerovichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha “Og'ir kuygan bemorlarda nafas yetishmovchiligi va ichak parezining erta profilaktikasi va davolashda endoskopik yondashuv” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Zuxurov Suxrob Elmurotovichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha “Katta va keksa yoshdagi bemorlarda qorin devorining qaytalangan churrallari uchun laparoskopik operatsiyalar natijalarini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Tuganova Luiza Djurayevnaning 09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi(etika) ixtisosligi bo'yicha “Yurist kasb etikasining aksiologik jihatlari” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Jumaniyozova Sabohat Bekturdiyevnaning 09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq ixtisosligi bo'yicha “Antrop tamoyil namoyon bo'lishining falsafiy metodologik jihatlari” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Nabiyeva Furuza Sayfuloyevnaning 14.00.02 – Morfologiya hamda 14.00.14 – Onkologiya ixtisosliklari bo'yicha “Tuxumdonlar tuzilishining me'yorda va xayfli o'smalardagi morfologik xususiyatlari: biomarkerlarning retsidsiviz omon qolishdagi ahamiyati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 12-may kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50;

veb-sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@buxmi.uz

Xoldarov Muhiddin To'g'ilboy o'g'lining 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “Yangi O'zbekistonda oilaning ijtimoiy qadriyat sifatida o'rni” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-may kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Nurov Sarboz Azim o'g'lining 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Yer-osti suvlari iste'moli natijasida buyrakda kechadigan morfo-funksional o'zgarishlar va biofaol qo'shimchalar ta'sirini o'rganish (Buxoro viloyati misolida)” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-may kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Umarov Xotamjon Atxamjon o'g'lining 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha “Beton qotishini sekinlashtiruvchi hyper polymix kimyoviy qo'shimchasining og'ir beton xossalari ta'sirini tadqiq etish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.09.01.T.02.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 9-uy.

Tel/faks: (55) 508-50-14, 508-03-12; e-mail: devon@taqu.edu.uz

Babasodikov Shukurullo Sayfulloyevichning 02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Tarkibida mikroelement bo'lgan kompleks xelat o'g'itlarni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shohko'chasi, 76-“v” uy.

Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz

Abdug'aniyeva Musharraf Xabibullo qizining 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha “Kungaboqar navlarini takroriy ekin sifatida yetishtirish agrotexnologiya elementlarini ishlab chiqish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliyog'oh ko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (74) 224-02-82; e-mail: andqxai@exat.uz

Shomurodov Xurshid Shokirovichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.37 – Anestziologiya va reanimatologiya ixtisosliklari bo'yicha “Ishemik insult bilan og'rigan bemorlarda immun tizimining buzilishi va immunokorrigirlovchi terapiyani asoslash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Muharrir kerakmi? Kerak!

Axborot texnologiyalari taraqqiyoti haddi a'losiga yetgan, xususan sun'iy intellekt hamma sohaga shiddat bilan kirib kelgan bir davrda muharrirga ehtiyoj ortdimi yo kamaydi? Albatta, ortdi. Ortib borayotir.

Jom yoki Yom?

Muharrir deganda faqatgina matn tahrir qiladigan, imlo va uslubiy xatolarni tuzatadigan mutaxassisni tushunish xato. Muharrir ishining qamrovi bundan kengroq. Misol keltiraman.

"Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi"da o'qiymiz:

"YOM – Samarqand viloyatida, Samarqand shahridan janubda joylashgan kent, shu yerdan oqib o'tuvchi soy Yom suvi deb atalgan (hozirgi Jom soyi). O'z vaqtida Amir Temur Movarounnahrni mo'g'ullar istilosidan ozod qilish uchun olib borgan jang-jadallar qisman Yom atroflarida kechgan. "B."da Boburning 902-h.y. ramazon oyida (1497-y., may-iyun) Andijondan Samarqandga yurishi munosabati bilan eslatiladi" ("B.", 39-b.). ("Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi". T., Sharq, 2014, 234-bet).

Endi asl manba – "Boburnoma"ga (T., Sharq, 2002, 55-56-betlar) yuzlanamiz. Hijriy 902-yil voqealari bayonida Andijondan "Samarqand azimati bila" o'tlangan Bobur mirzo Yoryayloq, Sheroz, Obyor, Qorabuloq, Yom, Xiyobon, Xon yurti, Puli Mag'ok, Tarnov, G'ori Oshiqon, Shovdor, Urgut kabi joy nomlarini sanaydi. Hammasi Samarqand shahrining sharqi va janubi-sharqida joylashgan. Jom esa Samarqandning janubida, "bir nima g'arbqa moyil", ya'ni janubi-g'arbida.

Demak, Andijondan Samarqandga kelayotgan odam Bobur zamonida ham, hozir ham Samarqand viloyati Nurobod tumani Jom qishlog'idan o'tishi haqiqatga zid. Jizzax viloyati Zomin tumani Yom qishlog'idan o'tishi to'g'ri.

"Bobur ensiklopediyasi"ning shu qismini yozgan muallif xatoga yo'l qo'ygan. Bu xatoni "ushlash" va to'g'rilash kimning zimmasida edi? Albatta, nashr muharririning. Muharrir geografiyadan yaxshi xabardor, tarix bilimdoni bo'lganida, muallifga savol qo'yar va xatoning oldi olinar edi.

Qizil dengiz qayerda-yu, Qora dengiz qayerda?

"Yosh kitobxon" tanlovining hakamlaridan biriman. Yaqinda Namangan viloyati bosqichida 1980-yili nashr etilgan kitobdagi shu kunga dovur tuzatilmagan kelayotgan bir xato zukko bir

kitobxon o'quvchini 1-o'rindan mahrum etishiga sal qoldi.

Tezkor savol-javob shartida o'sha yosh kitobxoniga shunday savol tushdi:

"Mark Tvenning "Tom Soyerning yangi sarguzashtlari" asarida keltirishicha, Fir'avn isroilliklarni quvlab qaysi dengiz ostida qolib ketgan edi?"

O'quvchi ikkilanmasdan "Qizil dengiz" deb javob berdi. Savollarni o'qiyotgan tanlov eksperti "Noto'g'ri" dedi. Chunki uning qo'lidagi javob "Qora dengiz" edi...

Mening esa xayolimdan shu gap o'tdi: "Bola to'g'ri javob berdi-ku!"

Tanlov yakunlangach ushbu ishtirokchi 2-o'rinni olgani ma'lum bo'ldi. Agar shu savolga javobi to'g'ri deya qabul qilinganida to'plagan baliga yana 20 ball qo'shib, birinchi o'ringa chiqar edi. Shu sabab u e'tiroz bildirdi. Masala hakamlar hay'ati tomonidan o'rganib chiqilib, ishtirokchining "Qizil dengiz" degan javobi to'g'ri deya qabul qilindi. Va u birinchi o'rinni oldi.

Lekin aytganimdek, ekspert qo'lidagi javob "Qora dengiz" edi.

церковнославянское словосочетание в русском Синодальном переводе Библии, употребляемое для обозначения водоёма, воды которого раступились и пропустили Моисея и еврейский народ во время Исхода из Египта, а затем сомкнулись и погубили войско фараона. Возле него располагался один из станков Исхода" (Vikipediya).

Tarjimasi:

"Qizil dengiz – Bibliya kitobining rus sinodal Injili(rus provaslav cherkovi, katolik, shuningdek, rus baptistlari va Rossiyadagi boshqa protestant jamoalari tomonidan ishlatiladigan Injilning ruscha bo'lmagan slavyancha tarjimasida) qo'llanilgan ibora bo'lib, Misrdan chiqish vaqtida Muso alayhissalom va yahudiy xalqini o'tkazib yuborish uchun ikkiga bo'lingan, so'ngra yana birlashib, fir'avn qo'shinini halok qilgan suv havzasini anglatadi. Uning bo'yida Isroil farzandlarining Misrdan chiqish yo'lidagi manzilgohlaridan biri joylashgan edi".

Agar kitob muharriri geografiyadan yaxshi xabardor bo'lganida, xayolidan "Misr qayerda-yu, Qora dengiz qayerda?" degan fikr o'tar edi.

Agar kitob muharriri tarixdan yaxshi xabardor bo'lganida, Qur'oni karimni o'qigan bo'lganida, Muso alayhissalom

qilib topilayotgan, deb Usladim Uzmich. Bu nima — bilimdonlikmi yoki sezilmay? Aytganlarimning hammasi to'g'ri, lekin kim qanday tushuncha tushunaverisni. Bu haqda juda kuf Usladim, meningcha, buni bilimdonlikka iybisa ham bulaveradi, ammo eng asosiy — bu xis etish idrokidir. Shuning uchun ham Tom g'ishtni ch'untagiga solda-da, uiga qayt-gandan keyin unga Uz ismi va faktlarni EziB muzeyga topshirajatinii aytdi. Men esaM sekinigina ch'untagidan g'ishtni olib xuddi shunga Ushagan bosqanin solib k'uygan edim, u sezmay qoldi. Lekin, yakka g'ishtning bir-biridan farqi bor edi, albatta. Meningcha, xuddi shu narsa bu erda gap bilimdonlikda emas, balki sezgi-da, degan masalani oydinlashtiradi. Sezgi unga g'isht-nig qayda bulashini aytdi, shunda u g'ishtning tas-niriga qarab emas, balki k'ursatagan joyda turganida tanib oladi. Agar bu erda gap sezgi-da emas, balki bi-lyimdonlikda bulganida, u g'ishtni qayta k'urganda ham Usha g'isht ekaniini bilgan bulardi. Tom esa bilimda. Bilimdonlik ajoyib bir narsa, deb qancha ayoqan- nos solishmasini, bari bir sezgi uzdan k'irq marta yu- sak znaniga, chunki u bexato Ula k'ursatishiga endi inonigan bulavanti kerak. Jim ham shunday despti. Qaytib borganimandan keyin Jim sharni pastlatib bizni borta oladi. Qayinda tuqay kizil fiska', chiroli- li yashl inakdan tikilgan kamzul va keng cholvor ki- yib olgan, shol belbogiga t'uploncha suqib k'uyilgan fi- git utirgan ekani. U ingliz tilida bizga Uylaboshlovchi sifatida bulamochi va Makka, Madina, Markaziy Afrika ni k'ursatmoqchi ekaniini aytdi, kuzgiga yilni dollar haq va ovk' b'ulashini aytdi, dedi. Biz rozi bulub uni b'la shik-da, katta tezlikda uchib ketdik. Kechki ovkatdan keyin Qora dengizning bir paytlari Fir'avn isroilliklari q'olib qolganida q'olib ket- gan joyiga etib kelдик. Shu erda t'uxtab Usha joyini tomosha kildik. Jim beixos kuzonib Usha voqea qan- day ruB berganini aniq k'urib turganini aytdi. U nero- ilniklar t'ujdiqlar oralaB borishganini, shosa-pisha kelayotgan misrliklar ularga etay deb qolishganida va dengizga tushishgan paytda t'ulkin kutariyib hammasi- ni suvga farq qilganini aytdi. Keyin biz yna tezlikni oshirib ilgariyib ketdik-da, Sinay togi ustida aylana

Otalar xarxasha qilmaydi!


Bir kuni "O'zbekiston" kanalida "Zurriyot" degan kinofilm qo'yishdi. Gid qiz chet elliklarga Samarqanddagi Registon maydoni Mirzo Ulug'bek davrida shakllanib boshlagan. "Registon maydoni" emas, "Registon ansambli" deyish kerak edi. Yana o'sha qiz "Ta'tilda uyga borgim kelmaydi. Borganimdan otam to'ydan gap ochib xarxasha qiladi" dedi. Og'aynilar, janob muharrirlar! Bolalar xarxasha qila- di, otalar emas!

"Avloniy" filmida uyi yonayotganini ko'rgan bosh qahramon "Farzandlarim!" deya hayqirib olovga o'zini urishga intiladi. O'zbek "Bolalarim", "bolam" deydi, "farzandlarim" emas...

Ko'p bunday misollar. Juda ko'p. Xulosa shulki, axborot texnologiyalari gullagan hozirgi davrda muharrirga bo'lgan ehtiyoj kamaygani yo'q, aksincha, mas'uliyati va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Muharrir oddiy matn tuzatuvchi emas, geografiya, tarix va til sirlarini mukammal biladigan, har bir dalilni taftish qiluvchi haqiqiy bilimdon bo'lishi shart. Zero, muharrirning loqaydligi tarixiy manbalardagi geografik xatoliklar, tarjima asarlardagi mantiqsizlik va milliy til jozibasining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bobur merosidagi joy nomlari yoki muqaddas tarixga oid ma'lumotlardagi chalkashliklar muallifning emas, aynan muharrirning filtrlaridan o'tmagan achi- narlidir.

Muharrir – madaniyat va ma'rifat posboni. Uning sergakligi kitobxonni chalg'ishdan asraydi va sifatli ma'naviy mahsulot yaratilishini kafo- latlaydi.

Husan KARVONLI



Буюк адиб Марк Твеннинг нахрамонлари — Том, Гек ва негр Жим бу сафар ҳаво шарида Саҳрон Кабир бўлаб учиб гаройиб воқеаларнинг гувоҳи бўлишди. Тўпلامга бошчилигини бир қанча ҳажвий ҳикоялари ҳам кўришган.

Русчадан Абдуворис Абдумажидов таржимаси

Издательство «Еш гвардия»—1980

www.ziyouz.com kutubxonasi

Chunki 1980-yili "Yosh gvardiya" nashriyotida chop etilgan "Tom Soyerning yangi sarguzashtlari" kitobi 93-betida shunday yozilgan. Qissani o'ris tilidan Abdovoris Abdumajidov tarjima qilgan. Aftidan, tarjimon o'rischa variantdagi "Черное море"ni "Черное море" deb o'ylagan va "Qora dengiz" deya o'g'irgan. Aslida esa: "Черное море –

va Fir'avn o'rtasidagi ziddiyatlardan xabardor bo'lganida bu voqea Qizil dengizda ro'y berganini bilar edi.

Agar kitob muharriri o'ris tilidan yaxshi xabardor bo'lganida asarning o'rischa matnini qidirib topib, "Черное море" emas, "Черное море" deb yozilganini bilar va tarjimonning xatosini to'g'rilar edi...

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149 150. V-6125. Tiraji 7020.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mual- lifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri, Darvozakent ko'chasi, 60-uy. Veb-sayt: www.marifat.uz

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

t – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova. Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov. Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.